

SPORTNING YAKKAKURASH TURLARINI YANADA OMMALASHTIRISH BO‘YICHA HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda tashrif bilan bo‘lib turgan Birlashgan kurash dunyosi rahbari Nenad Lalovichni qabul qildi.



Ushbu nufuzli global tuzilma bilan O‘zbekistonda sportning yakkakurash turlarini tashkiliy-ekspert jihatdan qo‘llab-quvvatlash va yanada ommalashtirish sohasida amaliy

hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda an‘anaviy tarzda yunon-rum kurashi, erkin kurash, ayollar

kurashi, shuningdek, aralash jang san‘atlari faol rivojlanmoqda.

Keyingi yillarda yakkakurashchilarimiz nufuzli musobaqalarda 45 ta yuksak sovrinni,

jumladan, Olimpiya o‘yinlari va jahon chempionatlarida oltin medallarni qo‘lga kiritdi.

Muzokaralar chog‘ida xalqaro birlashma rahbari Yangi O‘zbekistonda ommaviy sport sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni, jumladan, hammabop va zamonaviy infratuzilmani kengaytirish, nufuzli tumir va musobaqalarni muntazam o‘tkazish orqali yoshlarni sport harakatiga keng jalb etish borasidagi ishlarni yuqori baholadi.

Mamlakatimizda yirik qit‘a va jahon chempionatlarini tashkil qilish, tashkilot shafeligida Mintaqaviy kurash akademiyasini ta‘sis etish, sport tibbiyoti, diyetologiyasi, psixologiyasi va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda sheriklik masalalari muhokama qilindi.

Prezidentimiz bolalar va yoshlar o‘rtasida sport yakkakurashlarini ommalashtirish, iqtidorlarni saralash va tayyorlashning zamonaviy usullarini joriy etish, mahallalardagi to‘g‘arak va zallardan tortib, sport mahorati maktablari va ixtisoslashgan majmualargacha bo‘lgan infratuzilmani takomillashtirish muhimligini ta‘kidladi. Bu chora-tadbirlar, davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, Olimpiya o‘yinlari va boshqa yirik musobaqalarda yangi muvaffaqiyatlarga olib kelishi kerak.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti ommaviy sport va yakkakurash turlarini rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashga qo‘shgan katta shaxsiy hissasi uchun Nenad Lalovichga davlatimizning yuksak mukofoti — “Do‘stlik” ordenini topshirdi.

O‘ZA

BO‘STONLIQDAGI KELAJAK, ILM VA ISHONCH BOG‘I

Prezident tashrifidan so‘ng

Prezidentimiz shu yilning 15-sentabr kuni Bo‘stonliq tumanining Chimyon mahallasida barpo etilayotgan agrosanoat bog‘iga tashrif buyurdi. Bu tashrif yurtdoshlarimizga o‘ziga xos ko‘tarinki kayfiyat ulashdi. U yerdagi erta bahordan to qishgacha pishadigan qulupnay, bozori chaqqon malina va boshqa rezavorlarni, haqiqiy mehnat samarasini ko‘rib ko‘zimiz quvnadi. Shu bois, ushbu tashrifga oid lavhalar OAVlar va ijtimoiy tarmoqlarda tez ommalashdi. Zamonaviy bog‘dagi qulupnay tomorqamizda hosil berayotganday xursand bo‘ldik.

Quvonchimizning muhim sababi bor edi. Ya‘ni tog‘ tepasidagi bog‘ islohotlarning amaliy natijasi o‘laroq namoyon bo‘ldi. Qiyoslash zarur bo‘lsa, Yangi O‘zbekiston degan ulkan bog‘dagi qisqa muddatda amalga oshirilgan ishlarning samarasi, totli mevasi bu! Yo‘q, balandparvoz gap aytmadik. Tog‘ cho‘qqisidagi suvsiz yerning zamonaviy boqqa aylanganini ko‘rib, uning yaratilish tarixi bilan tanishgach, bunga amin bo‘ldik. Quyidagi safar taassurotlarimiz orqali bunga siz ham iqror bo‘lasiz deya umid qilamiz.

Xullas, bog‘ni borib ko‘rish maqsadida Bo‘stonliqqa yo‘l oldik. Mashinamiz keng

va ravon yo‘lda bir maromda ketib boradi. Ochiq oynadan kuzning yoqimli shabadasi kiradi. Mashina yuqorilab borgani sari tog‘ havosidan tan ham, ruh ham ajib bir rohat tuyadi. Beixtiyor o‘ylab ketaman, odam goh bilib, ba‘zan o‘zi ham anglamagan holda, ammo ichki bir tuyg‘u ila cho‘qqiga intilib yashaydi-ya?!

Yana bir haqiqat shundaki, cho‘qqiga eltadigan yo‘l doim mashaqqatli bo‘ladi. Keskin burilishlarda tezlikni me‘yorda ushlash, tik tepalikka moslab gaz tepkisini bosish kerak. Bu insondan bilim, malaka talab etadi. Bugun yangi O‘zbekiston ham Uchinchi



Renessans degan cho‘qqini mo‘ljal olib olg‘a intilmoqda. O‘sha marrani zabt etish uchun esa so‘nmas quvvat kerak. Bu quvvatning bitta nomi — ishonch! O‘zgarish, intilish va

maqsadga erishishga bo‘lgan ishonch. Uni mustahkamlovchi kuch esa ilm, ma‘rifatdir.

► Davomi 2-betda

SUV RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARISH BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-oktabr kuni suv xo‘jaligi sohasini raqamlashtirish, quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda sohaning xususiy sektor uchun jozibadorligini oshirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 50 ming kilometrlik sug‘orish tarmoqlari mavjud bo‘lib, 1,6 ming nasos stansiyasi va 10 mingdan ziyod suv obyektlari faoliyat yuritmoqda. So‘nggi yillarda yurtimizda suv xo‘jaligi tizimini isloh qilish, irrigatsiya infratuzilmasini yangilash va suv resurslaridan tejamlor foydalanish borasida izchil choralar ko‘rilmog‘da. Biroq quyi bo‘g‘indagi boshqaruv tizimida, jumladan, xizmat ko‘rsatish samaradorligi, hisob-kitoblar shaffofligi va moliyaviy mustaqillik bilan bog‘liq hali yechimini kutayotgan muammoli masalalar bor.

Taqdimotda sohada amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va xizmat ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Yangi yondashuv asosida suv hisobini yuritish to‘liq elektron shaklga o‘tkaziladi. “Suv hisobi” axborot platformasi orqali foydalanilgan suv miqdori aniq hisoblanadi va iste‘molchilarga elektron tarzda ma‘lum qilinadi. Bu tizim hisob-kitoblarda inson omilini kamaytiradi, ortiqcha qog‘ozbozlikni bartaraf etadi hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Ma‘lumotlarning aniqligini ta‘minlash maqsadida “Raqamli qishloq xo‘jaligi” platformasi bilan integratsiya yo‘lga qo‘yiladi. Shu orqali sug‘oriladigan yerlar, ekin turlari va suv limitlari haqidagi ma‘lumotlar avtomatik yangilanib boriladi.

Shuningdek, sohadagi barcha ma‘lumotlarni bir tizimda jamlash uchun Suv xo‘jaligi vazirligining “Suv xo‘jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi” tashkil etiladi. Markaz suv balansi, nasos stansiyalari va suv sarfi bo‘yicha ma‘lumotlarni tahlil qiladi, qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini yaratadi.

Bundan buyon suv xo‘jaligi sohasini raqamlashtirish masalalari bilan alohida vazir o‘rinbosari shug‘ullanadi.

Sohada “Davlat suv kadastri” axborot tizimi yaratiladi. U orqali suv resurslariga oid ma‘lumotlar tegishli vazirlik va idoralardan yig‘iladi va yagona bazada shakllantiriladi. Bu, o‘z navbatida, ma‘lumot almashish jarayonini soddalashtirib, hisobotlarni qog‘ozda yuritish amaliyotini qisqartiradi. “Davlat suv kadastri” tizimini 2026-yil apreliga qadar to‘liq ishga tushirish rejalashtirilgan.

Quyi bo‘g‘indagi xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish masalalari ham muhokama qilindi. Ehtiyoj va mavsumiy sharoitdan kelib chiqib, xizmatlarda shtatlarning o‘zgaruvchan boshqaruv tizimi joriy etiladi. Xizmatlarning samaradorligi KPI ko‘rsatkichlari asosida baholanadi.

2026-yildan boshlab xodimlarni rag‘batlantirish tizimi amaliy natijalarga bog‘lanadi, ya‘ni yetkazilgan suv miqdori va foydalanilgan hajm o‘rtasidagi tafovut asosida aniqlanadi.

Muassasalarning moliyaviy mustaqilligini oshirish maqsadida suv solig‘idan tushgan mablag‘larning 40 foizini o‘zining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yo‘naltirishiga ruxsat beriladi.

Suv xo‘jaligi nasos stansiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarish amaliyoti kengaytiriladi. 2026-yilda Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand va Sirdaryo viloyatlaridagi nasos stansiyalarning 50 foizi, 2027-yilga borib esa Namangan viloyatidagi barcha nasos stansiyalarini xususiy sheriklikka berish rejalashtirilmoqda.

Bu borada Namangan viloyatining Chortoq tumanida “bir nasos — bir tizim” tamoyili asosida “Chortoq tajribasi” amalga oshiriladi. Bunda xususiy sherik iste‘molchilarni suv limiti doirasida suv bilan ta‘minlaydi, nasoslarga bog‘langan maydonlardan hisoblangan suv solig‘ining 40 foizi xususiy sherikka to‘lab beriladi. Ushbu mablag‘lar hisobiga suv hisobini avtomatlashtirish va nasos stansiyalarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish yo‘lga qo‘yiladi.

Tajribaning mazmun-mohiyati va afzalliklarini dehqon hamda fermerlarga yetkazish maqsadida “Suvchilar maktabi” loyihasi doirasida 2025-2026-yillarda har bir tumanda bittadan “o‘quv dala-shiyyon” tashkil etilib, jami 141 ta tumanda 3,5 ming gektar maydon qamrab olinadi.

Prezidentimiz mutasaddilarga sohada raqamlashtirishni jadallashtirish, hisob va hisobot jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish, quyi bo‘g‘inda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish va xodimlarning mas‘uliyatini kuchaytirish bo‘yicha aniq topshiriqlar berdi hamda bu boradagi tegishli hujjatlarini imzoladi.

O‘ZA

MARKAZIY OSIYO — ROSSIYA SAMMITI: MUHIM GLOBAL MULOQOT MAYDONI

“Markaziy Osiyo — Rossiya” formatidagi ikkinchi sammit va MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi Rossiya bilan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Bu format mamlakatimiz milliy manfaatlaridan kelib chiqib, xavfsizlik, iqtisodiy o‘shish va madaniy almashuvni ta‘minlashga qaratilgan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli sheriklikni rivojlantiradi.



Prezidentimiz sammitdagi nutqida: “Rossiya biz uchun muhim, ustuvor strategik sherik va itifocchi bo‘lib kelgan, hozir ham shunday va kelgusida ham shunday bo‘lib qolishini ta‘kidlayman”, dedi.

Davlatimiz rahbari o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kuchaytirish uchun qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, tizimli siyosiy muloqotni rivojlantirish, muntazam uchrashuvlar

orqali amaliy hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma tashabbuslarni nazorat qilish uchun muvofiqlashtiruvchi kengash ta‘sis etish, shuningdek, amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan kengaytirilgan “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash zarur ekanini ma‘lum qildi.

► Davomi 3-betda

“YASHIL” ENERGIYA — STRATEGIK TANLOV, HAYOTIY ZARURAT



Bugungi kunda dunyodagi eng katta muammolardan biri energiyaga ehtiyoj doimiy oshib, tabiiy resurslar shiddat bilan kamayib borishidir. Ayniqsa, insoniyat hanuzgacha an‘anaviy energiya manbalari — neft, gaz kabilardan foydalanishda davom etayotgan bir vaqtda. Biroq bu manbalarining cheklangani, qayta tiklanmasligi va atrof-muhitga yetkazayotgan salbiy ta‘siri yangi, muqobil yo‘llarni izlashga undamoqda.

Shunday sharoitda quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi manbalarga asoslangan “yashil” energiya nafaqat ekologik toza, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu turdagi energiya manbalari orqali mamlakatlar nafaqat energiya mustaqilligiga erishmoqda, balki yangi texnologiyalar, innovatsion yechimlar va ish o‘rinlari yaratish orqali iqtisodiy o‘sishni ta‘minlamog‘da.

“Yashil” energiyadan foydalanish energetika ta‘minotida uzluksizlik va barqarorlikni ta‘minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning doimiy rivojlanishi, tabiatni muhofaza qilish va kelajak avlodlarga toza hayot muhitini qoldirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham “yashil” energiya — shunchaki texnologiya emas, balki insoniyatning tabiatga, yerga va kelajakka mas‘uliyatli munosabati hamdir.

O‘zbekistonda “yashil” energetika sohasiga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Bu yo‘nalish nafaqat istiqbolli, balki “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ayni paytda dunyoning rivojlangan davlatlari ham mamlakatimizning bu boradagi yutuqlarini e‘tirof etmoqda, O‘zbekiston esa “yashil” energiyani eksport qilish darajasigacha yetib kelmoqda.

Albatta, bu shunchaki da‘volar emas, amaliy natijalar bilan tasdiqlangan yutuqlardir. “Quruq qoshiq og‘iz yirtar” deganlaridek, buni raqamlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin. So‘nggi sakkiz yilda iqtisodiyot o‘sishi va aholi soni ortishi tufayli energiyaga talab ham shiddat bilan oshib bormoqda. Xususan, iste‘molchilar soni 25 foiz, ya‘ni 1 million 600 ming kishiga ko‘paygan bo‘lsa, umumiy energiya iste‘moli 54 foiz ortib, 25 milliard kilovatt-soatga yetdi.

► Davomi 4-betda

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari 15-sentabrda Bo‘stonliq tumanida O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tantanali tadbirda qatnashdi. Ta’limdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqadigan qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Ana shu tarixiy uchrashuvda davlatimiz rahbari: “Men bu iqtisodiy ko‘rsatkichlarga nima uchun ko‘p to‘xtalayman? Chunki iqtisodiyot qanchalik mustahkam bo‘lsa, ta’lim rivojlanadi. Ta’lim sifati yuqori bo‘lgan mamlakatda esa iqtisodiyot barqaror o‘sadi. Bu — hayot qonuni!” deya ta’kidladi.

Darhaqiqat, barcha yutuqlarning o‘qildizi ilmda. Ajdodlarimiz zakosi ikki marta uyg‘onish davriga asos soldi. Biz Uchinchi uyg‘onish davrini boshlab berish yo‘lida ekanmiz, ilgama, ayni paytda iqtisodiy tarmoqlarga jiddiy e’tibor berishimiz tabiiy. Mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi davr boshlandi. Ayni paytda yirik iqtisodiy tarmoqlarimizgaya biron qon tomir qo‘shiladigan bo‘ldi. Ya’ni Chimyon mahallasida 3 ming gektar maydonda malina, qorag‘at, qulupnay, o‘rmon yong‘og‘i kabi mevalarni yetishtirish yo‘lga qo‘yiladi. Loyihaning umumiy qiymati 60 million dollardan ortiq. Bu mablag‘ evaziga bog‘lar tashkil etiladi, mevani qayta ishlash korxonalari hamda katta sig‘imli omborxonalar quriladi.

Rasmiy xabarlardagi ushbu ma’lumotlarni eslab, keng dala, unda pishib yetilayotgan mevalar ko‘z oldimga keladi. Mashinamiz hamon tog‘ cho‘qqisi sari olg‘a intilardi. Tag‘in shu tepaliklarda ham tekis, ekin uchun qulay keng maydonlar bormikan deb o‘ylayman. Yon-atrofga qarayman, ko‘z o‘rganib tik tepaliklar, quyuq bog‘lar va dam olish maskanlari ko‘rinadi. Ammo ekin ekishga qulay joy topilmaydi. Bir mahal asosiy yo‘ldan chapga yurib tepaga chiqdik. Biz axtargan bog‘ asosiy yo‘lga yaqin ekan. Ammo bir qarashda bu yerga qulupnay ekilganiga ishonmaysiz. Manzara baland-past qir-adirlarni eslatadi. Biror joyda suv yo‘q. Xalqimiz iborasi bilan aytganda, qisir tog‘. Bunday joyda o‘t-o‘rlandan boshqa narsa ummaydi. Bu manzil qo‘y boqiladigan yaylovni eslatardi. Biz chiqib borgan tepalikda kichik xona-vagon bor ekan. Uning ro‘parasidagi tepalikda quvurdan hovuzga suv oqayti. Ularning o‘rtasidan o‘tgan toshloq yo‘ldan bir oz oldinga yursangiz, soynib bu boshidan narigi tomonigacha — yoy shaklidagi yerda yastangan bog‘ni ko‘rasiz. Dalada opa-singillarimiz yetilgan hosilni teryapti. Bilagi kuchga to‘lgan yigitlar hosilni uycha yoniga tashimoqda. Bizni yoshi oltmish bilan yetimshning oraliq‘idagi ochiqko‘ngil, samimiy inson Abdulla aka Hamidullayev qarshi oldi. Tadbirkor akamizga muddaoni aytgan edik, bog‘ sari yo‘l boshladi. Yo‘l-yo‘lakay bu bog‘ning yaratilish tarixi haqida so‘zlab ketdi.

Suv olib kelish uchun alpinistlar yordam berdi

— Asli Chinoz tumanida tug‘ilib o‘sganman, keyin Toshkent shahrida o‘qib, yashab qoldim, — deydi Abdulla aka. — Avval toqqa hech kelmagan ekanman. Yangi O‘zbekistonda turizmga e’tibor kuchaygach, Bo‘stonliqda yaxshi dam olish maskanlari ochila boshladi. Qishda bolalarimni olib dam olishga chiqdim. Hammasi o‘shandan boshlandi. Chimyonda ko‘pchilik chang‘i uchib yurgan ekan, menga ham taklif qilishdi. Avvaliga unamadim. Vaznim 120 kilogramm edi. Ammo yetimish yashar cholning chang‘i uchib yurganini ko‘rgach, fikrim o‘zgardi. Shundan so‘ng toqqa tez-tez kelib, chang‘i uchadigan bo‘ldim. Qor yo‘q paytdalar ko‘proq piyoda yurib, yon-atrofdagi qirlar va cho‘qqilarga chiqish qiziqarli mashg‘ulotim bo‘lib qoldi. Avvalgi ishimda osonlikcha xonadan chiqmasdim. Ortiqcha vazn ham shuning oqibati edi. Tabiiyki, sog‘lig‘im yaxshi emasdi. Toqqa kelgach, anchaya yaxшилandi. Yura-yura vazn tashladim. Ana shu yurishlarim natijasida yaqin atrofda men chiqib bormagan tepalik qolmadi. O‘shanday kunlarning birida hozir turgan joyimizga kelib qaradim. Yer unumdor, tuprog‘i yaxshi. Huv anavi tepalikka chiqqanimda buloq borligini ko‘rgandim. O‘zim Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida o‘qiganman. Sohani yaxshi bilganim uchun suv yo‘lini mo‘ljal oldim. Suvni shuncha masofadan olib kelishning o‘zi bo‘lgani yo‘q. Hatto tik qiyalikka duch kelib, alpinistlar yordamida qoyatoshga qoziq qogtirib, quvur tortishga to‘g‘ri keldi. Tomchilatib sug‘orish tizimini yo‘lga qo‘yidik. Bu tejamkor va samarali usul. Qulupnay juda ko‘p quvvat talab qiladi. Shu sabab yerni tayyorlash uchun qo‘y boqadigan cho‘ponlardan tabiiy o‘g‘it sotib oldim. Har bir gektar yerga 60 mashina (bu 200 kub metr degani) tabiiy o‘g‘it berdik. Keyingi jiddiy



— Boqqa qaraydigan doimiy ishchilarimiz ham, hosilning cho‘g‘iga qarab kunlik kelib ishlaydiganlar ham bor, — deydi suhbatdoshimiz. — Kunlik ishchilarning doimiy bandligi ta‘minlangan, desak xato bo‘lmaydi. Chunki har kuni terim bor.

masala yaxshi nav topish edi. O‘zimizdagi qulupnaylar nari borsa, bir oy hosil beradi. Biz to‘xtovsiz hosil beradigan qulupnay ekishimiz kerak. Hozir qulupnayimiz may oyining

eksportbop navlarini ekanmiz. Malinaning har gektaridan 400 million so‘m, qulupnaydan esa 500 million so‘mgacha daromad olinadi. Bundan tashqari, izlanishdan to‘xtab qolganimiz yo‘q.



oxiridan toki harorat minusga o‘tguncha hosil beradi.

Avvaliga internet orqali yaxshi deb topilgan turli navlarni o‘rganib chiqdim. O‘shalar orasidan nazariy jihatdan bizga mos keladigan eng yaxshi beshta navni tanlab, xorijdan ko‘chat olib keldik. Qulupnaylarni bir yil sinadik. Ularning orasidan “kabrillo” navi o‘zini har jihatdan oqladi. Keyingi yilda boshqa navdagi qulupnaylar o‘rniga ham “kabrillo” ekkdik.

Osogina bayon etilayotgan ushbu jarayon, aslida, juda katta mehnat, mablag‘ va sabr-bardosh talab etadi. Besh xil navdagi qulupnay ko‘chatini xorijdan olib kelishning o‘zi katta xarajat degani. Uni bir yil davomida parvarishlash, jarayonda rivojlanishini, hosildorligi va moslashuvchanligini kuzatib o‘rganish... Bu insondan olimlarga xos ilm va matonat talab qilib, xuddi o‘sha tog‘ yo‘lidan tepaga qarab chiqishga o‘xshaydi.

Qimmat emas, ko‘p sotish foydali

Yuqorida bu bog‘ni mamlakatimizdagi islohotlarning amaliy natijasi deb atadik. Buni qahramonimiz ham tasdiqlaydi: — Turizmga e’tibor kuchaymaganida bu yerni kelib ko‘rmasdim. Matbuotda ham piyoda yurishning, sayohatning foydalarini bot-bot aytilavergach, odam qobig‘ini yorib tashqariga chiqar ekan. Menda ham shunday bo‘ldi. Natijada kelib shu yerni ko‘rdim. Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlarga keng yo‘l ochib berilgani uchun qo‘rqmasdan katta tavakkal qildim. Natija quvonarli bo‘ldi. Ayni paytda 50 gektar maydonda malina va qulupnayning xorijiy

yo‘l-yo‘lakay ishchilariga ulardan oldin salom beradi. Samimiy nigoh ila hol-ahvol so‘raydi. Samimiyat baraka keltirishi haqida o‘ylayman. Ha, ochiqko‘ngil, barchaga birdek samimiy munosabatda bo‘lish kishini barakali qiladi. Bunga istalgancha misol keltirish mumkin. Yangi O‘zbekistonning dunyoga ochilishi, dunyo ham bizga quchoq ochishi juda katta iqtisodiy o‘sinhga sabab bo‘lyapti. Bugun Markaziy Osiyo davlatlaridan tortib, dengiz-okeanlar ortidagi rivojlangan mamlakatlar O‘zbekiston bilan aloqalarni mustahkamlamoqda. Negaki yaxshi qo‘shnichilik sabab Markaziy Osiyo ruhi uyg‘ondi. Natijada mintaga xalqaro doirada katta iqtisodiy quvvat sifatida namoyon bo‘ldi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida: “Bundan 8 yil muqaddam biz ushbu yuksak minbardan turib, Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik makoniga aylantirishga qat’iy qaror qilganimizni e’lon qilgan edik.

Bugun chuqur mamnuviyat bilan ta’kidlash mumkin: biz bu strategik maqsadga erishdik. Yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi”, deya ta’kidladi.

Qisqa muddatda butun bir mintaqadagi vaziyat tubdan yaxshilalanishining siri o‘sha samimiyat, barchaga birdek ochiqko‘ngillik bilan do‘stona qo‘l uzatishimizda emasmi?! Ha, mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar ham oddiy odamlar orasidagi mulohotlarga o‘xshaydi. Qayerda o‘zaro hurmat, do‘stona muhit hukm sursa, o‘sha yerda tinchlik, xotirjamlik bo‘ladi. Bugun dunyoni larzaga solayotgan urushlar, dahshatli ocharchilikdan halok bo‘layotgan bolalar va ayollar... Yo‘q, ular urush qurboni emas! Ular kelishmovchiliklar, o‘z manfaatini



Ha, ishbiarmonlikning o‘zgarmas qoidasi foydani ko‘zlab ish qilishdir. Ammo o‘sha daromadni barchaga manfaatti qilish chinakam tadbirkorlik. Yurtimizda esa Abdulla aka kabi ishbiarmonlar ko‘payib borayotgani kishini quvontiradi. Buning barchasi yuqorida bot-bot takror etganimiz — samimiyat bilan bog‘liq. Masalan, ommaviy sportga, sayyohlikka e’tibor sabab Abdulla aka Bo‘stonliq cho‘qqilarini zabt etdi.

ustun qo‘yib, samimiyati yo‘qolgan sovuq munosabatlar qurboni!

Shunday o‘ylar bilan qahramonimizga qarayman. U bugunidan ko‘ngli to‘q, ertasiga ishonch bilan bir maromda olg‘a qadam



tashlaydi. Yon-atrofda esa ishchilar. Ular shodan gurgulashib, o‘yin-kulgi bilan mehnat qilyapti. Qahramonimiz ko‘nglimdan kechayotgan fikrlarni o‘qiyotganday: “Ular doim mana shunday chaq-chaqlashib ishlaydi. Gohida baland ovozda qo‘shiq ham aytib qoladi”, deydi. So‘ng Abdulla akadan bog‘ ishchilari daromadi haqida so‘rayman.

— Boqqa qaraydigan doimiy ishchilarimiz ham, hosilning cho‘g‘iga qarab kunlik kelib ishlaydiganlar ham bor, — deydi suhbatdoshimiz. — Kunlik ishchilarning doimiy bandligi ta‘minlangan, desak xato bo‘lmaydi. Chunki har kuni terim bor. Shu bois, 100 ta odam bahordan to sovuq tushguncha, yetti oy ishlaydi. Ular o‘rtacha 4,5-5 million so‘m oylik oladi. Kelib-ketishi, tushligi bizning hisobimizdan.

Abdulla akaning gaplariga quloq tutib ketayotib, tag‘in cho‘qqi haqida o‘ylayman. Maqolamiz avvalida aytganimiz kabi inson doim cho‘qqiga intilib yashaydi. Xo‘sh, insonni tepalikka tortadigan, muttasil harakatga keltiradigan kuch nimada? Shu savol bilan qahramonimizga yuzlanaman. Hayotning past-balandini ko‘rgan, ancha tajribaga ega inson bu savolga javob berishga shoshmaydi.

— Gaplarim balandparvozga o‘xshashi mumkin, lekin ko‘nglimda borini aytaman, — deydi u. — Doim yangilik qilishga qiziqaman. Bu, menimcha, odamning qonida bor. Faqat inson o‘z ustida doimo ishlasa, yangilikka intilish yuzaga chiqa boshlaydi. So‘ng yangi-yangi marralarni zabt etish zavqini tuyadi. Men uchun muhimi nima, bilasizmi?! Har kuni ish tugagan paytda odamlarga halol mehnat haqini tarqatayotganimda maza qilaman. Bu g‘alati eshitilishi mumkin. Lekin, rosti, odamlarga pul tarqatish menga kuch beradi. Bu tushuntirib bo‘lmaydigan, izohi yo‘q tuyg‘u. Ularning ko‘zidan mamnunlik, sizga chin dildan rahmat aytishi kishiga kuch beradi.

Qalbida ezigulik hukm suradigan odamlar savobli ishlardan kuch oladi, deymen. Qahramonimiz samimiyat jilmayadi. Shu orada gapimizga yigirma bilan o‘ttiz yoshlar oraliq‘idagi ikki singlimiz Abdulla akadan quyuq hol-ahvol so‘raydi. Qahramonimiz esa o‘sha-o‘sha kamtarlik ila ulardan uzr so‘rab: “Suhbatlashayotgandik, ozgina kutib tursangizlar”, deydi.

— Ular marketing bo‘yicha ishlaydi, — deydi Abdulla aka boyagi singillarimizga ishora qilib. — Avvaliga qulupnayni bozorga olib chiqdim. Bozordagilar mendan bir so‘mga olsa, bozorda ikki so‘m qilib sotadi. Keyin onlayn savdoni yo‘lga qo‘ydim. Hozir Toshkent shahrida uydan chiqmasdan buyurtma berishingiz mumkin. Xodimlarimiz yangi uzilgan qulupnayni uyningizgacha yetkazib beradi. Muhimi, bozordan arzon. Chunki o‘sha bozorga ko‘tarasiga sotiladigan narxga yetkazib berish uchun ozgina haq qo‘shamiz.

Ha, ishbiarmonlikning o‘zgarmas qoidasi foydani ko‘zlab ish qilishdir. Ammo o‘sha daromadni barchaga manfaatti qilish chinakam tadbirkorlik. Yurtimizda esa Abdulla aka kabi ishbiarmonlar ko‘payib borayotgani kishini quvontiradi. Buning barchasi yuqorida bot-bot takror etganimiz — samimiyat bilan bog‘liq. Masalan, ommaviy sportga, sayyohlikka e’tibor sabab Abdulla aka Bo‘stonliq cho‘qqilarini zabt etdi.

topayotganlar, ilm o‘rganib dunyoni o‘ziga qarata yotganlar bor. Ha, ta’limdagi o‘zgarishlar ham odamlar hayotida birdan ko‘zga tashlana boshladi. Bugun ko‘plab yoshlarimiz eng nufuzli xalqaro ta’lim dargohlari grantlarini qo‘lga kiritmoqda. Bularning barchasi ijobiy fazilat o‘laroq jamiyatimizda ommalashib boryapti. Darhaqiqat, insoniy fazilatlar, yangi maralar sari intilishga ishtiyiq yuqumli bo‘ladi. U avvaliga bitta nuqtada ildiz otadi va sharoit, imkoniyatlar sabab jamiyatda keng tarqaladi.

Bo‘stonliq tumani Chimyon mahallasida barpo etilayotgan agrosanoat bog‘i haqidagi xabarlardan quvonishimizning asl sababi ham shunda. Ya’ni bugun bir butun xalq, yagona vatanimiz degan ezuq o‘ya atrofida birlashdik. Shu bois, yutuqlardan umumiy quvonish, faxrlanish hissi paydo bo‘ldi.

Maqolamiz avvalida ta’lim va iqtisodiyotning uyg‘unligi haqida aytgan edik. Yangi tashkil etilayotgan agrosanoat bog‘i buning hayotiy tasdiq‘i bo‘ladi. U yerda zamonaviy ilm-fan asosida yuksak iqtisodiy quvvat yaratiladi. Muhimi, bog‘ xalqimizning tabiiy toza va sifatli mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini qoplaydi. Qahramonimiz Abdulla akaning ta’kidlashicha, qor suvi ekin uchun juda foydali. Biz ko‘pincha toza ichimlik suv odam uchun kerak deb hisoblaymiz. Ammo suvning sifati qancha yaxshi bo‘lsa, yerdagi sho‘rlanish shuncha kam bo‘ladi. Bu tuproqdagi foydali element, o‘g‘itlarning samaradorligini oshiradi. Bo‘stonliq tog‘lariga esa qor qalin tushadi. Bu yangi agrosanoat bog‘i uchun koni foyda degani. Mana shuning o‘ziyoq ilmiy yondashuvning foydasi, ta’lim va iqtisodning ajralmas ekaniga dalil.

Taraqqiyot mezon

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida: “Ustuvor maqsadimiz — mamlakatimizda yashayotgan har bir oilaning, har bir fuqaroning hayotini tubdan o‘zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir”, dedi.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqardi. Bunga erishish oson bo‘lgani yo‘q. Ana shu mashqatli mehnat, avvalo, ta’lim, ilm-fanni yuksaltirishga qaratildi. Barcha jabhada innovatsion yondashuvlar qo‘llab-quvvatlandi. Olis hududlarda ham texnologik sanoat korxonalari barpo etildi. Shunga munosib tarzda “yashil” energetika va transport infratuzilmasi modernizatsiya qilinmoqda. Kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish orqali ish o‘rinlari yaratilyapti. Muxtasar aytganda, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy yangi O‘zbekistonda qat’iyat bilan mezon boshida tugun bo‘lsa, qishning avvalida yog‘ingarchilik ko‘p bo‘ladi. Agar o‘rtasi qalin, dumi ingichka bo‘lsa, qish chillasidagi sovuq va qordan boshqa hech narsa umid qilmagan yaxshi. Ipak tola qancha qalin bo‘lsa, qish shunchalik barakali keladi. Ya’ni qishdagi sovuq, qor-yomg‘irning ko‘pligi dehqonchilik uchun koni foyda. Shu bois, xalqimiz azaldan qishni kuch yig‘ish, bir muddat tin olib, yangi nish urish davri hisoblaydi. Shaxsiy kuzatuvimda bu taxmin doim to‘g‘ri chiqqan.

Darvoqe, mezon haqida. Dehqon va bog‘bonlar yaxshi biladi, kuzda 22-sentabrden keyin mezon uchadi. O‘shandan so‘ng uzilgan hosil qishda yaxshi saqlanadi. Chunki mezon uchgach, hosil orasida xomi qolmaydi, yetilgan bo‘ladi. Ayni paytda o‘sha mezon qishning qanday kelishini taxmin qilish imkonini beradi. Opoq, ipak tolasidagi mayin mezon boshida tugun bo‘lsa, qishning avvalida yog‘ingarchilik ko‘p bo‘ladi. Agar o‘rtasi qalin, dumi ingichka bo‘lsa, qish chillasidagi sovuq va qordan boshqa hech narsa umid qilmagan yaxshi. Ipak tola qancha qalin bo‘lsa, qish shunchalik barakali keladi. Ya’ni qishdagi sovuq, qor-yomg‘irning ko‘pligi dehqonchilik uchun koni foyda. Shu bois, xalqimiz azaldan qishni kuch yig‘ish, bir muddat tin olib, yangi nish urish davri hisoblaydi. Shaxsiy kuzatuvimda bu taxmin doim to‘g‘ri chiqqan.

Tog‘dan Abdulla aka bilan suhbatlashib qaytar ekanman, mezon haqida o‘yladim. Ajdodlarimiz shunchalik zakari bo‘lganki, ular mezonning shakliga qarab, qishning qanday kelishini bilgan. O‘ylashimcha, bu tabiat ilmini puxta o‘rganish, yillar davomidagi kuzatuvlar, hayotiy tajribalar mahsuli.

Nazarimda, taraqqiyotning mezon ham xuddi shunday. Uning ipak tolasini ilm, iqtisod va ma’rifatdan bo‘ladi. U qanchalik mustahkam bo‘lsa, cho‘qqiga eltadigan dovonlar shuncha oson zabt etiladi. Shu jihatdan u tabiatning emas, inson mehnati, aql-zakovati, uning intilish va orzulari hosilasidir. So‘z va amal birligi esa uni yanada mustahkam qiladi. Bugun yangi O‘zbekistonda ortga qaytmas tus olgan o‘sish va o‘zgarishlar, erishilgan yutuqlar taraqqiyot mezonining mustahkamlanib borayotganidan dalolat.

Boboravshan G‘OZIDDINOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

RUSTAM O‘RMONOVICH AHMEDOV

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tanikli namoyandasi, mamlakatimizning birinchi mudofaa vaziri, iste’fodagi general-polkovnik Rustam O‘rmonovich Ahmedov 82 yoshida vafot etdi.

R.Ahmedov 1943-yil 10-noyabrda Farg‘ona viloyatining Bag‘dod tumanida tug‘ildi. O‘rta maktabni tugatganidan so‘ng dastlab Toshkent oliy tank qo‘mondonlik bilim yurtida, keyin Moskva shahridagi Zirhli tank qo‘shinlari harbiy akademiyasida ta‘lim oldi.

Butun hayotini harbiy sohaga bag‘ishlagan R.Ahmedov tank polkida vzvod komandiri, tank diviziyasi siyosiy bo‘limi boshlig‘ining yordamchisi, tank diviziyasi batalyoni komandirining siyosiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Toshkent oliy tank qo‘mondonlik bilim yurti kursantlar batalyoni komandirining o‘rinbosari lavozimlarida xizmat qilib, shaxsiy tarkibni boshqarish, uning harbiy, jismoniy va ma‘naviy tayyorgarligini oshirish borasida yetarli bilim va tajriba ortirdi.

Toshkent oliy tank qo‘mondonlik, Samarqand oliy harbiy avtomobil qo‘mondonlik va Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurtlarida rahbarlik lavozimlarida ishlagan yillarida uning tashkilotchilik qobiliyati yaqqol namoyon bo‘ldi.

Vatanimiz istiqloqla erishganidan so‘ng R.Ahmedov O‘zbekiston Respublikasining mudofaa vaziri, ayni vaqtda birmuncha muddat Milliy gvardiya qo‘mondoni vazifasini bajaruvchi sifatida faol ish olib borib, milliy armiyamizni shakllantirish, davlatimiz mudofaa tizimini barpo etish, harbiy kadrlarni tayyorlash yo‘lida jonbozlik ko‘rsatdi. Mudofaa vazirligining Bosh shtabi qayta tashkil etilib, Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabiga aylantirildi, harbiy okruglar tuzildi, harbiy qismlarning joylashuv va boshqaruv tizimi

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, V. MAXMUDOV, SH. XALMUXAMEDOV



takomillashtirildi. Mudofaa vazirligining boshqa kuch tuzilmalari bilan hamkorligini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

R. Ahmedov 1997-1998-yillarda O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vaziri lavozimida ham samarali faoliyat olib bordi.

Faxriy general, ulug‘ yoshda bo‘lishiga qaramasdan, Yangi O‘zbekistonda Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish, harbiy xizmatchilarning jangovar va ma‘naviy tayyorgarligini oshirish borasidagi ulkan islohotlarni amalga oshirishda mudofaa vazirligining maslahatchisi sifatida o‘zining boy bilim va tajribasi bilan faol ishtirok etdi. Qaysi lavozimda xizmat qilmasin, harbiy qasamyodiga sodiq qolib, o‘z zimmasidagi vazifalarni mas’uliyat va sharafla bilan bajardi, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda shaxsiy namuna ko‘rsatdi.

R.Ahmedovning harbiy sohadagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U O‘zbekiston Respublikasining II darajali “Shon-sharaf” va “Do‘stlik” ordenlari bilan mukofotlandi.

Tanikli harbiy qo‘mondon, samimiy va kamtarin inson Rustam Ahmedovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

MARKAZIY OSIYO — ROSSIYA SAMMITI: MUHIM GLOBAL MULOQOT MAYDONI

Munosabat

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston rahbari iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish zarurligini qayd etar ekan, keyingi yillardagi murakkab iqtisodiy sharoitga qaramay, O‘zbekistonning Rossiya va mintaqadagi davlatlar bilan tovar aylanmasi 15 foiz o‘sganini, imkoniyatlardan keng foydalanilsa, bundan ham yuqori natijalarga erishish mumkinligini qayd etdi.

Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini yaxshilash va agrar hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan “Markaziy Osiyo — Rossiya agroekspres” loyihasi uchun mahsulot bozorlariga o‘zaro kirishni yengillashtirish, jarayonlarni soddalashtirish zaruratini bayon qildi.

Tovar aylanmasi o‘sishi va tartib-taomillarni legallashtirish kichik va o‘rta biznesni rivojlantiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va mintaqani tranzit xab sifatida kuchaytiradi.

Shimol — Janub transport yo‘lidan faol foydalanish orqali avtomobil, temir yo‘l va aviatsiya aloqalarini samarali integratsiya qilish mumkin. Buxoro shahrida “Markaziy Osiyo — Rossiya” sanoat injiniring xabi tashkil etilsa, u ilg‘or muhandislik yechimlarini ishlab chiqish, joriy qilish va ommalashtirish uchun noyob texnologik maydonchaga aylanishi barchaga birdek manfaat keltiradi. Shimol — Janub yo‘lagi logistikada asosiy element bo‘lib, Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi transport samaradorligini oshiradi.

Davlatimiz rahbari Toshkentda o‘tkaziladigan “Innoprom. Markaziy Osiyo” ko‘rgazmali forum imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun ushbu tadbirga “Markaziy Osiyo — Rossiya” muloqot formatidagi asosiy sanoat va innovatsiya maydoni maqomini berishni taklif qildi. Bu tadbirning ahamiyati va samaradorligini yanada oshiradi.



“**Shimol — Janub transport yo‘lidan faol foydalanish orqali avtomobil, temir yo‘l va aviatsiya aloqalarini samarali integratsiya qilish mumkin. Buxoro shahrida “Markaziy Osiyo — Rossiya” sanoat injiniring xabi tashkil etilsa, u ilg‘or muhandislik yechimlarini ishlab chiqish, joriy qilish va ommalashtirish uchun noyob texnologik maydonchaga aylanishi barchaga birdek manfaat keltiradi.**

Shimol — Janub yo‘lagi logistikada asosiy element bo‘lib, Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi transport samaradorligini oshiradi.

Toshkentda joriy yil aprel oyida o‘tkazilgan bu ko‘rgazmada 35 mamlakatdan 10 mingdan ortiq ishtirokchi qatnashdi. Unda besh milliard dollarlik bitimlar imzolandi.

Bu tashabbuslar mashinasozlik, gaz kimyosi, mis sanoati va aniq qurilmalar ishlab chiqarishni rivojlantirishga yordam beradi, mamlakat va mintaqaning sanoat salohiyatini mustahkamlaydi.

Energetika sohasida ham hamkorlik strategik darajada rivojlanmoqda. Ustuvor loyihalar qatoriga O‘zbekistondagi birinchi atom

elektr stansiyasi qurilishi va ko‘p funksiyali yadro tibbiyoti markazini tashkil etish kiradi. Atom energetikasi bo‘yicha mintaqaviy malaka markazini yaratish va Moskva davlat muhandislik-fizika institutining Toshkent filialida mutaxassislar tayyorlash dasturlari mamlakatning kadrlar salohiyatini oshiradi.

Innovatsiyalar sohasida O‘zbekistonda Rossiyaning “Skolkovo” markazi filialini tashkil etish, sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalar bo‘yicha Mintaqaviy ekspert kengashini tuzish davr talabi ekani bildirildi. Ushbu tuzilmalar

kelgusida asosiy AT kompaniyalar va ilmiy muassasalarni birlashtiruvchi maydon bo‘lishi shubhasiz.

Shuningdek, sammitda qo‘shma madaniy, ta‘lim va ilmiy dasturlarni kengaytirish, Markaziy Osiyo va Rossiya xalqlari madaniyati, san‘ati va ijodiyoti festivali — yillik etno-madaniy forumni tashkil etish taklif qilindi.

Sammitdagi tashabbuslarga ko‘ra, “Kelajak muhandislari” ilmiy-ta‘lim konsorsiumi dual ta‘lim va ilmiy loyihalarni rag‘batlantirish tamoyilida yetakchi oliygohlar va ilmiy muassasalarni birlashtiradi. O‘zbekistonda bugun Rossiyaning 15 ta universiteti filiallari faoliyat yuritmoqda. Bu esa ta‘lim tizimlarini integratsiyalash imkonini beradi. Shu bilan birga, mintaqadagi yosh olimlar uchun maxsus grant dasturlari yaratilishi ilmiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi muhim vazifa terrorizm, ekstremizm, odam savdosi va narkotrafikka qarshi kurashish uchun maxsus xizmatlar va huquqni muhofaza qilish idoralar hamkorligini muvofiqlashtirishdir. Prezidentimiz Afg‘oniston bilan hamkorlikni rivojlantirish va bu mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirishga ko‘maklashish bo‘yicha yondashuvlarni muvofiqlashtirish maqsadida yuqori darajadagi maslahatlashuvlarni o‘tkazish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishni taklif etdi.

Eng muhimi, O‘zbekistonning Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi deyarli barcha sohalarni qamrab oladi va mintaqaviy integratsiyaning mustahkam asosini yaratadi.

Bir so‘z bilan aytganda, “Markaziy Osiyo — Rossiya” formatidagi ikkinchi sammit O‘zbekiston va Rossiya sherikligining mintaqani barqaror rivojlantirishdagi strategik ahamiyatini yanada yuqori bosqichga olib chiqadi. Qo‘shma loyihalar va tashabbuslar hayotning barcha muhim sohalarini qamrab olgan bo‘lib, oldinga siljish va muvofiq harakatlarni ta‘minlaydi. Sammit o‘n yillik aloqalarni mustahkamlashda va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi rolini oshirishi bilan ahamiyatli.

Durbek AHMEDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

SHAFFOFLIK, SAMARADORLIK VA TEJAMKORLIK

YANGI KODEKS NIMALARGA XIZMAT QILADI?

Inson tanasining o‘rtacha 70 foizini suv tashkil etadi. Ona homilasida bu ko‘rsatkich 99, yangi tug‘ilgan chaqaloq tanasida 90 foizdir. Shu jihatdan qaraganda, suvning insoniyat uchun qanchalik muhim va qadrlı ekani yaqqol ko‘rinadi. Yana bir misol. Qadimda aholi suv o‘tgan manzillarni makon tutgan. Shu tarzda insoniyatning ilk tamaddun o‘choqlari suv bo‘yida shakllangan. Chunki na odamzod, na hayvonot, na nabotot suvsiz hayot kechira olmaydi. Ammo biz o‘sha hayot manbaiga “sovuq” munosabatda bo‘lishga shu qadar o‘rganib qolgan edikki, uzoq yillar davomida “oqqan daryo oqaveradi”, “suv tekin” degan xavotiriz va haqiqatdan yiroq xayollar ichida yashab keldik.

Kun mavzusi



alohida e‘tibor qaratildi, — deydi O‘zbekiston Qahramoni Do‘stmuurod Abdullayev. — Bu O‘zbekistonning global muammolarga faol yondashuvini va xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni mustahkamlashga intilishini yaqqol ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazaridan, yaqinda qabul qilingan Suv kodeksi muhim huquqiy qadam sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Kodeks barcha iqtisodiyot tarmoqlari va atrof-muhitning suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish, sug‘oriladigan yerlar holatini yaxshilash kabi dolzarb masalalarni qamrab olgan.

Albatta, amaldagi kodeksda suvdan foydalanish tartibi, eng avvalo, inson salomatligi va hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilangan. Unga muvofiq, suv resurslaridan foydalanishda, birinchi navbatda, aholining ichimlik va maishiy ehtiyojlari, shuningdek, sanitariya-epidemiologik xavfsizlik hamda ekologik talablar qondirilishi zarur hisoblanadi. Bunday tizimli va insonparvar yondashuv mamlakatimizda ustuvor etib belgilangan “Inson qadri uchun” tamoyilining amaldagi ifodasidir. Shu yo‘l bilan fuqarolarning turmush sifati yaxshilanadi. Ularning sog‘lom hayot kechirishiga asos yaratiladi.

Suv resurslarini boshqarishda ekotizimni muhofaza qilishga qaratilgan yondashuv

ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ilgari suvdan foydalanish masalasiga ko‘proq e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, endi uni saqlash, qayta tiklash va muhofaza qilish birinchi darajali vazifaga aylanmoqda. Xususan, yer osti suvlarini asrash va ekologik xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha qonunchilik va amaliy tadbirlar yanada kuchaytirilmoqda. Bu yer osti suvlarini nazoratini kuchaytirish, uni noqonuniy ravishda o‘zlashtirayotganlar, ya‘ni artezian “uruvchilar”ning toza ichimlik suvga bo‘lgan “tajovuzkorona” harakatlarini qat‘iy tartibga solish imkonini yaratadi.

— Suv kodeksi qabul qilinishi, avvalambor, suv sarfini tartibga solish va undan oqilona foydalanishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu orqali nafaqat tejamkorlik oshiriladi, balki suv resurslarini boshqarishda samaradorlik ham yuksaladi. Kodeks doirasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, suvni qayta ishlash va aylanma ravishda foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda, — deydi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi a‘lochisi” Salohiddin Jalilov. — Suvga nisbatan oqilona munosabatni shakllantirish maqsadida kodeksda turli rag‘batlantiruvchi mexanizmlar ham nazarda tutilgan.

Jumladan, o‘zini oqlaydigan hududlarda xo‘jaliklararo tarmoqlarni faol ishlatish va

ularni modernizatsiyalashtirishda xususiy sektor bilan hamkorlik qilish imkoniyati yaratiladi. Bunday chora-tadbirlar orqali suv bilan bog‘liq xizmatlar sifati oshadi.

Kodeksda xo‘jaliklararo tarmoqlarni samarali ishlatish va ularni modernizatsiya qilishda xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish belgilangan. Bu chora-tadbirlar xizmatlar sifatini oshirish bilan birga jalb qilinayotgan investitsiyalarni rekonstruksiya va innovatsiya jarayonlariga yo‘naltirish imkonini yaratadi. Mazkur yondashuv iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada xorijiy va mahalliy investorlar faolligi oshib, sohada xususiy sektor uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Bugun ana shunday yondashuv doirasida mamlakatimizda 6,4 trillion so‘m qiymatidagi 463 ta suv xo‘jaligi obyektı xususiy sektor boshqaruviga o‘tkazilgan. Bu loyihalar doirasida 110 milliard so‘m investitsiya jalb etildi. Natijada 90 ga yaqin nasos agregati yangilanib, xizmatlar sifatini oshirishga erishildi.

— Yangi qabul qilingan Suv kodeksida suv resurslarini boshqarishda jamoaviy yondashuv joriy etilmoqda. Milliy va havza darajasida tashkil etiladigan Suv kengashlariga davlat organlari, olimlar, fermerlar, fuqarolik jamiyati vakillari faol jalb etiladi. Bunday model qarorlar qabul qilish jarayonida ochiqlik va shaffolikni ta‘minlaydi.

Mahalliy aholi va manfaatdor tomonlar fikrini inobatga olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilg‘or texnologiyalarni joylarda tatbiq etishni yengillashtiradi. Bu nafaqat suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanishga, balki qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishi hamda ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi, — deydi Salohiddin Jalilov.

Yana birida asosiy yo‘nalish yangi yondashuv sifatida joriy etilayotgan raqamli suv xo‘jaligi tizimidir. Bu tizim sohada shaffolikni ta‘minlash va nazoratni real vaqtda amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Ushbu tizim markazida elektron hujjat aylanmasi va suv iste‘molini onlayn tarzda hisobga olishga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni turibdi. Suvdan foydalanish bo‘yicha tuziladigan shartnomalar maxsus axborot tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bu usul inson omilini kamaytiradi va xatolar ehtimolini qisqartiradi. Yangi tizim suv foydalanuvchilari uchun aniq va tushunarli qoidalarini shakllantiradi. Qolaversa, obyektiv statistika va suv xo‘jaligi tarmoqlaridagi yo‘qotishlarni kamaytirish imkonini beradi. Natijada resurslardan samarali foydalanishga erishiladi. Shu asosda “Raqamli suv xo‘jaligi” tizimi joriy etilishi sohada shaffolikni ta‘minlab, yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Aniq va ishonchli boshqaruv mexanizmi shakllanadi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

Bugungi notinch va o‘zgaruvchan dunyoda eng katta boylik inson kapitalidir. Prezidentimiz MDH Davlat rahbarlari kengashining Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishidagi nutqida ana shu haqiqatni yana bir bor eslatib, ilm-fan, ta‘lim, madaniyat va san‘at bizni birlashtiradigan, kelajak sari yetaklaydigan eng mustahkam poydevor ekanini ta’kidladi.

ENG GO‘ZAL MEROS



Mulohaza

Salkam bir asrlik tarixga ega bo‘lgan, ilm va ma‘rifat maskani — Farg‘ona davlat universitetida an‘anaga aylangan, iliq va samimiy ruhda o‘tayotgan “Rektor va yoshlar” uchrashuvida talabalar bilan dildan suhbatlashar ekanmiz, ularning har bir nigohida ishonch, har bir so‘zida umid va fidoyilik ko‘rdim. Ayniqsa, chet tillar fakultetining birinchi bosqichida tahsil olayotgan ochiq fikrli, tashabbuskor va izlanuvchan yoshlar xalqaro forum tashkil etish niyatida ekanini bildirgani juda ma‘qul bo‘ldi. Nega deganda, bu tashabbus zamirida nafaqat ulkan mas’uliyat, balki orzu, qat‘iyat va vatan oldidagi sadoqat mujassam. Prezidentimizning Dushanbe yig‘ilishida Xiva shahrida MDH Yoshlar forumi tashkil etish tashabbusi xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik, ma‘naviy yaqinlik ramzidir. Zero, yoshlar birlashsa, kelajak birlashadi.

Bugun dunyo raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, innovatsion iqtisodiyot sari borayotgan bir paytda ta‘lim tizimi ham yangicha fikrlash, yangicha yondashuvni talab qiladi. Prezidentimizning raqamli hamkorlikni kuchaytirish haqidagi chaqiriq‘i aynan shunga yo‘naltirilgan: bilim almashish, tajriba o‘rganish, o‘zaro o‘qitish orqali bir-birimizni boyitish, hamfikr bo‘lish. Shunday ekan, bugun har bir o‘qituvchi, har bir talaba, har bir ota-ona bu chaqiriqni yurakdan his etishi kerak: ta‘lim eng katta sarmoya, eng ishonchli kafolat, eng go‘zal merosdir.

Prezidentimiz aytganidek, ta‘lim va ilm-fan sohasida qo‘shma dasturlarni kengaytirish, malaka mezonlarini uyg‘unlashtirish, yoshlarning intellektual kuchini birlashtirish nafaqat MDH doirasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, balki butun mintaqa kelajagini nurafron etadi. Zero, bilim bilan birlashgan xalqlarni hech qanday to‘siq yenga olmaydi. Ilm bilan rivojlangan jamiyatni hech qanday kuch to‘xtatishga qodir emas. Tafakkur bilan yuksalayotgan avlodni esa faqat yorqin kelajak kutadi.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor



IJTIMOY BARQARORLIK VA FAROVONLIK MANBAYI

Tahlil

Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi dolzarb masalaga aylanib borayotgan ayni paytda nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini mavsumiy emas, doimiy yetkazib berish talab etilmoqda. Bunday sharoitda yil davomida sifatli mahsulot taklif qila olgan davlatlarga jahon bozorida munosib o'rin egallamoqda. Biroq oddiy dala sharoitida yil bo'yi muttasil mahsulot yetkazib berish imkonsiz.



Jamshid ABDUZUHUROV,
qishloq xo'jaligi vaziri
o'rinbosari

Bu jihatdan qaraganda, issiqxonalar — zamonaviy resurs tejovchi, avtomatlashtirilgan texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori samaradorlikka erishgan agrar obyektlar. Bu faqat o'simlik parvarishlanadigan joy bo'lib qolmay, zamonaviy fermerlik va mevasabzavotchilikning "yuragi"dir.

O'simliklar tabiat injiqliklaridan xoli muhitda, tinch va qulay sharoitda o'sishi, shuningdek, yil davomida sifatli va eksportboq mahsulotlar yetishtirish imkoniyati mavjudligi bois, issiqxona xo'jaliklarining iqtisodiy foyda olishi uchun ham keng sharoit yaratilgan.

Bundan tashqari, issiqxonada agroteknik tadbirlarni amalga oshirish odatiy maydondagiga qaraganda yengil va samaraliligi, yetishtirilgan mahsulotlar bozorda yuqori talabga ega bo'lgani sababli fermerlarga barqaror daromad keltiradi. Mamlakatimizning chekka hududlaridagi ishsiz hamda kam ta'minlangan oilalar daromadini oshirish, turli ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turuvchi yurtodshlarimizning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishda ham issiqxona xo'jaligining o'rni beqiyos. Chunki hovli yoki tomorqaning bir chetida qurilgan kaftdekkin issiqxona ham iqtisodiy muammolar girdobiga tushib qolgan oilaning oyogqa turib ketishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa issiqxona fermerlik va tadbirkorlikni yangi bosqichga ko'tarib, aholi bandligini ta'minlash, yurtodshlarimizga sifatli va ekologik toza, kafolatlangan mahsulotlarni taqdim etishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda issiqxona xo'jaligi rivoji yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Zero, bozorlarimizni yil davomida turli sabzavotlar, poliz, ko'kat va sitrus mahsulotlari bilan ta'minlashda hamda eksport salohiyatini oshirishda, shuningdek, aholini ish bilan ta'minlashda issiqxonalarning o'rni katta, albatta.

Bugun mamlakatimizda 5,1 ming gektar issiqxona mavjud bo'lib, so'nggi yetti yilda

ularda yetishtiriladigan mahsulotlar hajmi 110 ming tonnadan 546 ming tonnaga ko'paydi. Issiqxonalarning 2379 gektari (937 tasi) gaz, 1483 gektari (1082 tasi) ko'mir, 430 gektari (237 tasi) bug' va 7 gektari (4 tasi) elektr energiyasi yordamida isitishga moslashtirilgan, 840 gektari esa (695 ta) isitilmaydi.

Issiqxonalarda jami 35 ming 532 ta, jumladan, 8271 ta doimiy va 27 ming 260 ta mavsumiy ish o'rni ochilgan. Mahalliy 1867, xorijlik 55 agronom yuqori sifatli mahsulot yetishtirish bo'yicha issiqxonalarda faoliyat yuritmoqda.

2025-yil kuz-qish va 2026-yil qish-bahor mavsumi uchun isitish tizimlari mavjud bo'lgan jami 4300 gektar issiqxonalarda ekinlar ekish, jumladan, 1903 gektarga pomidor, 1084 gektarga bodring, 207 gektarga bulg'or qalampir, 16 gektarga qalampir, 33 gektarga baqlajon, 2 gektarga poliz ekinlari, 1 gektarga kartoshka, 675 gektarga sitrus mevalar va 195 gektarga gul ekish rejalashtirilgan.



Ushbu maydonlarda qish-bahor mavsumida 260 ming tonnadan ortiq mahsulot yetishtirib, ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berish ko'zda tutilgan. 2024-2025-yillar qish-bahor mavsumida 4432 gektar issiqxonalarda 267,8 ming tonna mahsulot yetishtirilgan.

Issiqxonachilik — davr talabi. Oldin qishloq xo'jaligi faqat mavsumiy hosilga bog'liq bo'lsa, bugun esa issiqxona texnologiyalari sharoifati bilan ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'rt faslda uzluksiz yetishtirish mumkin. Aholini yilning har qanday paytida meva-sabzavot bilan ta'minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, issiqxonalar mahsulodlikni oshirish bilan birga, resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, qishloq joylardagi aholi uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Bu sohada ochilgan minglab ish o'rni yoshlarning yurtida qolishi, oilalarning barqaror daromad topishiga xizmat qiladi. Qisqasi, issiqxona — ijtimoiy barqarorlik va farovonlik manbayi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholi soni keskin o'sishi, yangi turar joy binolari qurilishi natijasida issiqlik energiya manbalariga ehtiyoj ham ortdi. Bundan tashqari, qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlik munosabatlari tufayli issiqxonada yetishtirilgan mahsulotlar nisbatan arzon narxda mamlakatimiz bozoriga kirib kela boshladi. Agrar sohaga bog'liq bo'lmagan shu kabi qator omillar hisobiga yurtimizdagi issiqxona xo'jaliklari kechiktirmay hal etilishi zarur bo'lgan muammolarga duch keldi.

Ushbu masalalarning yechimini topish va issiqxona xo'jaliklarining faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Qishloq xo'jaligi vazirligi mutasaddilarining mamlakatimizdagi issiqxona xo'jaliklari rahbarlari bilan uchrashuvlari tashkil etilib, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha fikr-mulohazalar bildirildi.



Issiqxona xo'jaliklari rahbarlarining takliflarini inobatga olgan holda, Issiqxona xo'jaliklari moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish va rivojlantirish bo'yicha respublika ishchi guruhining 3 ta yig'ilish bayoni asosida 11,7 trillion so'mlik (91 foiz) kreditlarni qaytarish muddati 7 yildan 14 yilga uzaytirilib, issiqxonalarda hosilni yig'ib olish va sotish muddatiga moslashtirildi.

Prezidentimizning "Issiqxona xo'jaliklari faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan issiqxona xo'jaliklari tomonidan ko'tarilgan yana bir asosiy masala, ya'ni tabiiy gaz uchun oldindan 100 foiz pul to'lash muammosi hal etildi. Endi issiqxona xo'jaliklariga hosil yilning dastlabki 3 oyi (oktabr, noyabr va dekabr) da yetkazib beriladigan tabiiy gaz to'lovining 50 foizi oldindan, qolgan qismi esa keyingi oylardan boshlab oy yakuniga qadar to'lanadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining "Issiqxona xo'jaliklariga issiqxonalarni ko'mir yoqilg'isida isitish uchun ko'mir qozonini qat'iy qilib xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorida issiqxonalarni ko'mir yoqilg'isida isitish uchun xarid qilingan ko'mir qozoni xarajatlarining 20 foizgacha qismini qoplash uchun, biroq 80 million so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda bir martalik subsidiya berilishi belgilangan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan, issiqxona xo'jaliklariga xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatining 50 foizi, biroq bir oyga bir mutaxassis uchun 1000 dollar ekvivalentidan oshmagan qismiga subsidiya beriladi.

Qolaversa, hukumatning limonchilik sohasini qo'llab-quvvatlashga doir qarorida ilg'or tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularga xorijiy tajribani o'rgatish, zarur hollarda chet elda tajriba o'tirtirishi va xalqaro darajada tan olingan

sertifikatlar olishi uchun har yili 5 milliard so'm ajratish, limon yetishtirishga ixtisoslashtirilgan hududlardagi aholi xonadonlari va ijaraga berilgan yer maydonida ixcham issiqxonalar qurib berish hamda 3 yillik imtiyozli davri bilan 7 yilgacha bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotish imkoniyati yaratildi.

Sohada erishilayotgan yutuqlar bilan birga soliq, moliyaviy qo'llab-quvvatlov, kredit yukini kamaytirish, aylanma mablag' ajratish, yoqilg'i resurslaridan foydalanish, mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni import qilishdagi imtiyozlar bilan bog'liq qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Ularni bartaraf etish yuzasidan joriy yil 30-iyul kuni Prezidentimiz huzurida mevasabzavot va oziq-ovqat eksportini ko'paytirishda yangi zaxira va imkoniyatlarni ishga solish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda issiqxona xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari issiqxonalarda oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik masalasi ekanini ta'kidladi. Mazkur yig'ilishda tegishli idoralarga sohada qat'iy nazorat o'rnatish vazifasi topshirildi.

Issiqxonachilik hosil manbai bo'lish bilan birga zamonaviy agroindustriya asosiga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qishda ham, yozda ham bozorga chiqara olish iqtisodiyotning barqarorligi va xalq xo'jaligidagi muvozanatni ta'minlaydigan omildir.

Bugungi issiqxona nafaqat xo'jalik, balki eksportni oshirish imkoniyati hamdir. Uning har bir gektari — xorij bozorlariga yo'l, har bir tonna mahsulot — milliy valyuta mustahkamlanishi va iqtisodiy barqarorlik asosi. Shu bois, O'zbekistonning kelajakdagi iqtisodiy salohiyati neft-gaz yoki kon resurslari bilan birga ana shunday yangi avlod agrar sohasi — issiqxonachilik kabi samarali yo'nalishtirish bilan ham belgilanadi.

“YASHIL” ENERGIYA — STRATEGIK TANLOV, HAYOTIY ZARURAT

Boshlanishi 1-betda

Bunday sharoitda qayta tiklanuvchi manbalarni keng joriy etish strategik zaruratga aylandi. Shu maqsadda "yashil" energiyani ishlab chiqarish bo'yicha tarixiy ahamiyatga ega loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2016-yilda 59 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda 85 milliardga yetdi. Kelasi yilda esa 97 milliard kilovatt-soatgacha o'sishi kutilmoqda. Joriy yilning o'zida 6,5 milliard kilovatt-soat "yashil" energiya ishlab chiqarildi va umumiy energiya generatsiyasida uning ulushi 30 foizni tashkil etdi. 2030-yilga kelib esa 35 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri investitsiya jalb qilinib, "yashil" energiyaning umumiy ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Bu natijalar nafaqat xalqaro, balki milliy iqtisodiyotimiz va jamiyatimiz ehtiyojlariga javob beradigan aniq strategik yondashuv samarasidir. "Yashil" energiyaning eng istiqbolli yo'nalishtirish yo'nalishi quyosh energiyasidir. Ushbu energiya turi orqali nafaqat tabiatni asrash, balki iqtisodiy barqarorlik va energiya ta'minotida mustaqillikka erishish mumkin. Quyosh energiyasini amaliyotga joriy etish orqali biz kelajak avlodlar uchun sog'lom, toza va xavfsiz muhitni saqlab qolish imkoniga ega bo'lamiz.

Mamlakatimiz bu yo'nalishta izchil harakatlarni davom ettirmoqda. Quyosh energetikasini rivojlantirish, "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash va xalqaro hamkorlikni



O'rolboy XOLIQAQAROV,
Toshkent davlat agrar universiteti
dotsenti, texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori

kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar yaqin kelajakda milliy iqtisodiyotning yangi drayveriga aylanishi shubhasiz.

Quyosh nurini oqilona va samarali tarzda energiyaga aylantirish faqatgina tabiatni muhofaza qilish emas, balki milliy iqtisodiyotimizni diversifikatsiyalash, ekologik barqarorlikka erishish va istiqbolli rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Shu jihatdan yangi O'zbekistonda quyosh energiyasiga energetika mustaqilligi va xalq farovonligiga olib boruvchi asosiy manba sifatida qaralmoqda.

Qabul qilingan muhim dastur va hujjatlar aynan shu sohada iqlotlarning mustahkam po'ydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun quyosh panellari hamda kichik quvvatli shamol turbinalarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu strategiya amalda o'z natijasini bermoqda. Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida yirik quyosh elektr stansiyalari qurilishi jadal sur'atlarda davom etmoqda. Loyihalar amalga oshirilganidan so'ng yurtimizda elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalarning ulushi sezilarli darajada ortadi.

Aholi turmush darajasini oshirish, ayniqsa, qishloq joylarda quyosh batareyalari va shamol turbinalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu nafaqat arzon va ekologik toza energiya manbai, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, qishloq infratuzilmasini yaxshilashga ham katta hissa qo'shadi.

Muqobil energiyadan samarali foydalanish O'zbekistonning energetika sohasidagi mustaqilligini ta'minlash, tabiiy gaz va neft kabi an'anaviy manbalarga bog'liqlikni kamaytirish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va jahon ekologik muammolarini hal etishda mamlakatimizning faol ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda yiliga 300 kundan ziyod quyoshli kun mavjud bo'lib, quyosh energiyasidan samarali foydalanish uchun beqiyos imkoniyat yaratadi. Agar bu imkoniyatlardan oqilona foydalanilsa, elektr



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



ta'minoti uzluksiz bo'ladi, yoqilg'iga bog'liqlik kamayadi, atrof-muhit toza saqlanadi va chekka qishloqlarda ham energiya bilan ta'minlash muammolari yechimini topadi.

Ayniqsa, qishloq hududlar va fermer xo'jaliklari uchun quyosh energiyasidan foydalanish strategik ahamiyatga ega. Shu maqsadda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishga qaratilgan davlat dasturlari amaliyotga joriy etilmoqda. Bu dasturlar qishloq aholisi va fermerlar faoliyatida energiya ta'minotini barqarorlashtirishga yo'naltirilgan.

Quyosh energiyasi kichik quvvatli fotelekt stansiyalar orqali uzoq qishloq hududlarni elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, fermer xo'jaliklari uchun suv nasoslari, issiqxonalar va qishloq xo'jaligi texnikasi uchun quyosh panellari o'rnatish xarajatlarni

qisqartirish, samaradorlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda qo'l keladi.

Quyosh energetikasini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar taqdim etilmoqda. Bu esa qishloq aholisi va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar ehsini ochmoqda.

Bugungi kunda aholi orasida quyosh energiyasidan foydalanish, ayniqsa, fotelekt stansiyalar o'rnatish borasida turli savollar va ikkilanishlar mavjud. Bu esa quyosh panellaridan foydalanishning turli usullari va har birining afzal hamda kamchilik jihlatlarini yaxshi anglash zarurligini ko'rsatadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, quyosh energiyasidan samarali foydalanishning uchta asosiy tizimi mavjud: tarmoqqa ulangan (on-grid), tarmoqdan mustaqil (off-grid) va aralash (hybrid).

Tarmoqqa ulangan tizimda kunduzi quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan energiya, avvalo, xonadon ehtiyojini qondirib, ortiqcha qismi davlat elektr tarmog'iga uzatiladi. Tungi paytda esa uy elektr ta'minotini davlat ta'minotidan oladi. Bu tizim shahar va tarmoq yaqinidagi qishloqlar uchun qulay.

Tarmoqdan mustaqil tizimda esa xonadon davlat tarmog'idan to'liq uzilgan holda faqat quyosh panellari va akkumulyatorlar orqali energiya bilan ta'minlanadi. Kunduzi ishlab chiqarilgan energiyadan uyda foydalaniladi va ortiqcha qismi akkumulyatorlarda to'planadi. Tungi paytda esa energiya anyan mana shu to'plangan zaxiradan olinadi. Bu usul chekka va elektr tarmog'iga ulanmagan hududlarda juda samarali.

Aralash, ya'ni hybrid tizimda esa xonadon ham davlat tarmog'iga, ham akkumulyatorlar orqali uy ehtiyojini qoplaydi va ortiqcha energiya tarmoqqa uzatiladi. Elektr uzilishlari bo'lgan holatda esa tizim avtomatik ravishda akkumulyator zaxirasiga o'tadi va uy uzluksiz ta'minotga ega bo'ladi. Bu usul elektr uzilishlari tez-tez uchraydigan hududlar uchun maqbul yechim.

Quyosh energiyasining hayotdagi samarasi turli misollarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Toshkent viloyatidagi fermerlardan biri quyosh panellari yordamida suv nasosi ishlatib, o'z yerlarini arzon va samarali sug'orish imkoniga ega bo'lmoqda. Navoiy viloyatidagi bir uy xo'jaligi esa off-grid tizimini o'rnatib, elektr ta'minotida davlat tarmog'idan to'liq mustaqil bo'lgan. Samarqanddagi ishlab chiqaruvchi hybrid tizimdan foydalanib, ish jarayonini elektr uzilishlarisiz davom ettirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, quyosh energiyasi qishloq aholisi va fermerlar uchun ishonchli, tejamkor va ekologik toza manba bo'lib, kelajakda nafaqat iqtisodiy foyda, balki barqaror yashash muhitini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Shaharlarda va elektr tarmog'i yaqinidagi hududlarda tarmoqqa ulangan, chekka hududlarda mustaqil tizim, uzluksiz ta'minot talab etiladigan joylarda esa gibrid usuldan foydalanish eng maqbul yechim sanaladi.

Obidjon HAMIDOV,
Buxoro davlat universiteti rektori, professor



Turkiy davlatlar tashkilotining Ozarbayjonning Gabala shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdagi sammiti tarixiy ahamiyatga ega voqea bo‘ldi. Nufuzli tadbirda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan amaliy tashabbuslar buni yaqqol tasdiqlaydi. Aslida, davlatimiz rahbarining xalqaro sammitlar, uchrashuvlar,

muloqotlarda aytayotgan barcha takliflari, fikrlari zamidira umuminsoniyat manfaatlariga xizmat qiluvchi da‘vat, tinchlik, barqarorlik, farovon hayot yo‘lidagi g‘oyalar mujassam. Bu so‘nggi yillarda yangi O‘zbekiston yuritayotgan do‘stona tashqi siyosat samarasidir. Shu bois, galdagi sammitda ham O‘zbekiston tomonidan bildirilgan tashabbuslar ishtirokchi davlatlar tomonidan faol qo‘llab-quvvatlandi.

TDT turkiy dunyo birdamligining institutsional ifodasi bo‘lib, tarixiy bosqichlar orqali rivojlandi. Tashkilot bugungi kunda umumiy tarix, til va madaniyat asosida hamjihatlikni mustahkamlayotgan, mintaqaviy barqarorlik hamda taraqqiyotga xizmat qilayotgan nufuzli xalqaro tashkilotga aylandi.

Har gal TDT sammiti xalqlar taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi yo‘lida birlashishga intilishni namoyon etmoqda. Bu borada 2024-yil

6-noyabr kuni Bishkek shahridagi sammitda O‘zbekiston tashabbusi bilan tarixiy hujjat — Turkiy dunyo xartiyasi qabul qilinishi qardosh davlatlar va xalqlar o‘rtasida rivojlanib borayotgan

qo‘shnichilik va xalqlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlari eng asosiy o‘rin va ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu esa qardosh xalqlar o‘rtasida o‘zaro tinchlikni barqarorlashtirish, totuvlik va bag‘rikenglikka asoslangan munosabatlarni o‘rnatish hamda mustahkamlashga zamin yaratyapti. Shu jihatdan olganda, mazkur tashabbus yangi O‘zbekiston bundan keyin ham ushbu yo‘nalishda qat’iy siyosat yuritishini anglatadi.

Turkiy davlatlarning iqtisodiy sheriklik bo‘yicha doimiy kengashini tuzish va uning loyiha ofisini Toshkentda joylashtirish taklifi ham har tomonlama chuqur o‘ylangan, nazariy va amaliy asoslarga ega. Bu asoslar nimalarda namoyon bo‘ladi? Avvalo,



ko‘p qirrali hamkorlikning yorqin ifodasi bo‘ldi.

Prezidentimizning Gabala sammitidagi nuqti, tashabbuslari keng jamoatchilikda doimgidek katta taassurot qoldirdi. Orzu-intilishlar sari dadil odimlashga, yanada jipslashishga sabab bo‘ldi. Negaki ushbu g‘oya va tashabbuslar nafaqat mamlakatimiz, balki a‘zo davlatlar, Markaziy Osiyo xalqlari uchun ham har tomonlama manfaatli. Buning yorqin misoliga bugun barchamiz guvohmiz. Dunyoning eng yirik OAVlarida, ijtimoiy tarmoqlarda yangi O‘zbekiston shijoati xususida fikrlar yangramoqda. Jumladan, yangi O‘zbekiston kuchli, strategik, markazlashgan va tarixiy haqiqatlarga tayangan holda Uchinchi Rennessans poydevorini qurishga intilayotgan davlat ekanini Prezidentimiz sammitdagi nuqtida o‘rtaga tashlagan tashabbuslari bilan yana bir karra tasdiqladi.

Mintaqaviy va global xavfsizlik masalalari bo‘yicha yondashuvlarni muvofiqlashtirish maqsadida Samarqandda Turkiy davlatlar tashkiloti tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmatlari rahbarlari birinchi qo‘shma uchrashuvini o‘tkazish taklif etildi. Bu a‘zo davlatlarning diplomatik munosabatlarni yanada mustahkamlash va mavjud muammolarni bamasalhat, har tomonlama manfaatli ravishda hal etish imkonini beradi.

Strategik sheriklik, abadiy do‘stlik va qardoshlik to‘g‘risidagi shartnomani tez fursatda qabul qilish qo‘llab-quvvatlandi. Shu maqsadda Turkiy davlatlar tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarurligi aytiladi. Yangi O‘zbekistonning so‘nggi to‘qqiz yillik siyosatida yaxshi

“Turkiy davlatlar sanoat alyansi, “Turkiy yashil yo‘laklar” tizimi va “Yashil transformatsiya” konsorsiumini tashkil etish takliflarining ham o‘ziga xos mohiyati bor. Yangi O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayon shiddatli tus olgan. Qardosh davlatlar manfaatlari birlashib, “Turkiy yashil yo‘laklar” tizimi va “Yashil transformatsiya” konsorsiumi tashkil etilishi bu boradagi ezgu maqsadlar ro‘yobini jadallashtirib, taraqqiyot sari birgalikdagi yirik harakat yuzaga keladi.

aytish kerakki, ushbu tashkilot ishida O‘zbekiston ko‘p amaliy loyihalarni, tashabbuslarni ilgari suradi va uni amalga oshirishni ta‘minlaydi. Bu har galgi sammit xulosalarida ma‘lum bo‘lmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda ushbu tashkilotning loyiha ofisi bo‘lishi mantiqan to‘g‘ri.

Turkiy davlatlar sanoat alyansi, “Turkiy yashil yo‘laklar” tizimi va “Yashil transformatsiya” konsorsiumini tashkil etish takliflarining ham o‘ziga xos mohiyati bor. Yangi O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayon shiddatli tus olgan. Qardosh davlatlar manfaatlari birlashib, “Turkiy yashil yo‘laklar” tizimi va “Yashil transformatsiya” konsorsiumi tashkil etilishi bu boradagi ezgu maqsadlar ro‘yobini jadallashtirib, taraqqiyot sari birgalikdagi yirik harakat yuzaga keladi.

Organik qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ekspertlar guruhini tashkil etish va turkiy organik mahsulotlarning yagona brendini jahon bozoriga olib chiqish g‘oyasi o‘ta muhim. Albatta, tashkilotga a‘zo davlatlarda milliy brend mahsulotlar mavjud va ular dunyo bozoriga bir davlat nomidan chiqiyapti. Umumiy brend ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlar esa chegara va tranzit xizmatlari cheghimalari hamda qulay imtiyozlar qo‘llash natijasida jahon bozoriga ham sifatli, ham arzon narxlarda kirib boradi.

Prezidentimiz nuqtida o‘rta yo‘lakni rivojlantirish va uni “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li hamda Transafg‘on yo‘lagi loyihalari bilan bog‘lash muhimligini ta‘kidladi. O‘zbekiston transport infratuzilmasi imkoniyati jihatidan mintaqada yetakchi va ilg‘or davlat. Mana shu imkoniyatni a‘zo davlatlar bilan, jumladan, eng kuchli iqtisodiyotlardan biri — Xitoy hamda SHHT hamkorligida amalga oshirish maqsad qiligan.

Turkiy investitsiya jamg‘armasi faoliyatini kengaytirish hamda xalqaro va milliy moliya institutlari bilan hamkorlik dasturini qabul qilish zarurligi aytiladi. Buning natijasida tashkilot manfaatlari doirasida yangi moliyaviy qo‘llab-quvvatlovchi institutlar vujudga keladi.

Sun‘iy intellekt va kreativ iqtisodiyot bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish va Turkiy dunyo xalqaro ko‘rgazmasini O‘zbekistonda o‘tkazish g‘oyasi juda dolzarb. Biz axborot va sun‘iy intellekt insoniyat hayotiga jadal kirib kelayotgan davrda yashayapmiz. Bugun sun‘iy intellekt global tarmoq tarzidan ilg‘or harakatga aylanmoqda. Bu borada jamiyatlarga ijobiy taraqqiyot kirib kelish bilan birga axborot xuruji ham o‘sib borishi tayin. Shunday ekan, turkiy davlatlarning umummanfaatiga xizmat qiluvchi kuchli kadrlarni tayyorlash, bilim va ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantirish muhim. O‘zbekistonda qo‘shma tadqiqotlar va innovatsiyalar maydoniga aylanadigan Turkiy davlatlar xalqaro universiteti tashkil etilishi bunda qo‘l keladi, albatta.

2026-yilda “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi — Turkiy dunyo ma‘naviy hayotida” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish tashabbusi ham ilgari surildi. Turkiy tilli davlatlar haqida so‘z yuritganda, albatta, Alisher Navoiy ko‘z oldimizda gavdalanadi. Uning turk tili rivojida yuksak hissasini nafaqat turkiy xalqlar, balki dunyo yaxshi biladi. Bu tashabbus bugungi ta‘lim dargohlarida turkiy dunyo ildizlarini bog‘lovchi ulug‘lar hayoti va ijodini chuqur o‘rganish, yoshlarni ajdodlariga munosib avlod bo‘lib yetishishga undaydi.

Umuman olganda, Gabala sammitida ilgari surilgan tashabbuslar Turkiy

davlatlar tashkiloti faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, uni mintaqaviy emas, balki global miqyosdagi nufuzli tuzilma sifatida shakllantirish imkonini beradi. Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan yo‘nalishlar iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish, transport va logistika salohiyatini oshirish, “yashil” energetika, sanoat kooperatsiyasi, xavfsizlik, ta‘lim va ma‘rifat sohalaridagi aniq loyihalar orqali o‘zaro bog‘liqlik va taraqqiyot sur‘atini mustahkamlaydi.

Tashkilot doirasida “bir ovoz, bir maqsad, bir kelajak” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan bunday sa‘y-harakatlar turkiy davlatlarining umumiy tarixiy va ma‘naviy merosiga tayanadi. Eng muhimi, bu tashabbuslar faqat bugungi muammolarni hal etishga emas, balki kelajak avlodlar uchun barqaror, innovatsion va birlashgan turkiy dunyo barpo etishga qaratilgan.



Yuksalish pallası

TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH — UMUMMILLIY MAQSAD

Fan olimpiadalari markazi ish boshlaganiga hali uncha ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. O‘tgan davrda O‘zbekiston terma jamoasi bir necha nufuzli xalqaro olimpiadada tarixiy natijalarga erishdi. Misol uchun, o‘tgan yili 128 medal qo‘lga kiritilgan bo‘lsa, joriy yilning shu paytigacha dunyo ta‘lim sahnalarida 199 marotaba yurtimiz nomi sharaflandi. Keyingi yili maktab o‘quvchilari o‘rtasida xalqaro kimyo va informatika olimpiadalari ilk bor O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadi. Undan kutilayotgan natija katta. Fan olimpiadalari markazi direktori To‘raboy SHERMATOV bilan suhbatimiz shu va boshqa masalalar xususida bo‘ldi.

— Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qobiliyatli hamda fanlarni chuqur o‘rganishga qiziqadigan yoshlarni aniqlash va seleksiya qilish, ulardagi iqtidorni yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil qilingan markazimiz iqtidorli o‘g‘il-qizlar uchun bilim va ijod maydoni bo‘lib xizmat qilmoqda, — deydi suhbatdoshimiz. — Markazimiz o‘quvchilarning xalqaro fan olimpiadalaridagi ishtirokini ta‘minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan shug‘ullanadi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



O‘quvchilarning xalqaro olimpiadadagi natijasi yuqori bo‘lishida qator omillar muhim o‘ringa ega. Birinchidan, ularni saralash jarayoni shaffof. Qolaversa, har bir saralash bosqichi oldidan o‘quvchilar uchun kuchaytirilgan mashg‘ulot tashkil etiladi. Qo‘shma o‘quv yig‘inlari o‘tkaziladi.

Shu bilan birga, fan olimpiadalariga tayyorgarlik jarayoniga xorijdan ham mutaxassislar, olimlar va professor-o‘qituvchilar jalb qilinaypti.

Fan olimpiadalariga viloyat olimpiadasi g‘oliblari, ya‘ni 9-, 10-, 11-sinflarning eng yuqori natija ko‘rsatgan 5 o‘quvchisi va mintaqaviy hamda nufuzli xalqaro musobaqalar g‘oliblari jalb etiladi. Har bir fan bo‘yicha o‘rtacha 400-500 o‘quvchi qamrab olinadi.

Matematika bo‘yicha nufuzli jahon olimpiadasida 6, kimyodan 4, fizikadan 5 o‘quvchi ishtirok etadi. Shu bois, ikkinchi bosqichda 12-18 ishtirokchi saralab olinadi va xorijlik trenerlarga birlashtiriladi. So‘ng uchit elga qo‘shma o‘quv yig‘iniga jo‘natiladi, kuchaytirilgan mashg‘ulotda tayyorlanadi. Ikkinchi saralash natijasiga ko‘ra, yaxshi natijaga erishgan o‘quvchilar terma jamoaga olinib, olimpiadada ishtiroki ta‘minlanadi. Saralash bosqichlaridagi savollar xalqaro olimpiada standartlari asosida tuziladi.

— Xalqaro olimpiadada ishtirok etayotgan jamoa a‘zolari chet tilini bilishi shartmi?

— Xalqaro olimpiadada bitta standart bor: o‘quvchi sinovlarni yagona tilda topshirishi shart emas. Unga o‘zini erkin his qilishi uchun olimpiada jarayonlarini u yaxshi tushunadigan tilga tarjima qilish imkoniyati beriladi. Bu vazifa terma jamoa rahbariga yuklatiladi. Olimpiada boshlanishidan oldin mamlakatlar terma jamoalariga o‘quvchining xohishiga ko‘ra vazifa beriladi. Albatta, xorijiy tillarni bilgan yaxshi. Mustaqil ravishda xalqaro olimpiada materiallari bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Lekin til bilmaslik xalqaro olimpiadada ishtirok etmaslik yoki terma jamoaga kira olmaslik uchun sabab bo‘lmaydi.

kiritgan. Joriy yilning 9 oyida vakillarimiz 199 ta medalga sazovori bo‘ldi. Tahlillar natija bir necha barobar oshganini ko‘rsatmoqda. Bu ta‘lim va fandagi keskin bulirishdan dalolat.

O‘zbekistonning yutuqlarini boshqa mamlakatlar ham tan olyapti. Misol uchun, hozir kimyo yoki matematika olimpiadalarida terma jamoamiz alohida hurmat qilinadi. Sababi, O‘zbekiston yuqori ko‘rsatkichli mamlakatlar safida. Bosqichma-bosqich fizika, informatika fanlari ham rivojlanaypti. Informatika fanidan joriy yilda ilk marotaba terma jamoamiz a‘zolari kumush medalni qo‘lga kiritdi. Bu salohiyatimiz oshayotganini ko‘rsataypti.

— Keyingi yili maktab o‘quvchilari o‘rtasida nufuzli xalqaro kimyo va informatika olimpiadalari ilk bor O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadi. Bundan nimalar kutilaypti?

— Kelgusi yili dunyoning eng yosh kimyogar va informatiklari O‘zbekistonda jamlanadi. Biz ham xalqaro maydonda ayni shu yo‘nalishlarda yana bir bor o‘z salohiyatimizni namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Chunki savollarni mezbom mamlakat vakillari tuzadi. Demak, xalqaro olimpiada standartlariga mos mukammal savollar tuzilishi kerak.

Jarayonlarga tayyorgarlik allaqachon boshlangan. Mamlakatimizda buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan xalqaro olimpiadalar tashkil etib kelinmoqda. Misol uchun, Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika-informatika olimpiadasi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasi, Al-Farg‘oniy nomidagi fizika olimpiadasi, Abu Ali ibn Sino nomidagi xalqaro biologiya olimpiadalari muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Bu O‘zbekistonning xalqaro olimpiada o‘tkazish bo‘yicha tajribaga ega ekanini ko‘rsatadi.

Keyingi yili mamlakatimizda o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan kimyo bo‘yicha bellashuvda 96 mamlakatdan yosh kimyogarlar ishtirok etadi. Informatikadan 90 dan ortiq davlat vakillari bellashishi kutilaypti. Hozir jarayonga mahalliy ekspertlardan saralab olingan

ilmiy qo‘mita bilan birga tajriba almashish maqsadida xalqaro ekspertlar ham jalb etilgan. Ular olimpiada uchun zarur materiallar to‘plamini tuzyapti. Umid qilamizki, bu olimpiadalar tarixida har jihatdan eng yaxshi bellashuvlardan biri bo‘ladi.

— O‘tgan yilga nisbatan medallar soni oshgan, ko‘rsatkichlar yuqoriligi kishiga g‘urur bag‘ishlaydi. Aytg‘chi, bu muvaffaqiyat zamirida nima mujassam?

— Bitta omilni aynan shu deb ko‘rsatish qiyin. Biroq haqiqat shuki, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Prezident maktablari hamda ixtisoslashtirilgan o‘quv muassasalari o‘chilgani ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishga zamin hozirladi. Qolaversa, ota-onalarning dunyoqarashi ham o‘zgargan. Hozir aksariyat ota-onalar bolalarni kichik yoshidanoq bilim egallashga yo‘naltirmoqda.

2019-yilda xalqaro olimpiada g‘oliblarini moddiy rag‘batlantirish tizimi joriy etildi. Bu fan olimpiadalari tarixida yangi davrni boshlab berdi. Yildan yilga natijalar sezilarli darajada oshdi. O‘z ustida ishlagan ustoz va murabbiylar, dunyo ilm-fani maydonida yuqori natija ko‘rsatayotgan o‘quvchilar mehnati bugun yuksak darajada qadr va rag‘bat topmoqda.

Fan olimpiadalari markazi tashkil etilgani, jarayonlarning to‘liq shaffof o‘tkazilishi, qisqasi, butun mexanizm muvaffaqiyatga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etyapti.

— O‘quvchilar uchun xalqaro olimpiadalarda ruhiy bosimni yengish bo‘yicha qanday ishlar qilinmoqda?

— Musobaqada ikki xil bosim bo‘ladi. Birinchisi — akademik bosim, bolaning bilimi topshiriqni bajarishga yetishi yoki yetmasligi bo‘lsa, ikkinchisi — ruhiy bosim. Tayyorgarlik jarayonida akademik bosimni yengish uchun o‘quvchiga to‘g‘ri material berish, ilmiy salohiyatini oshirish kerak. Ruhiy bosimni yengish bo‘yicha alohida tayyorgarlik ko‘riladi.

Olimpiadaga tayyorgarlik jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida har bir saralash bosqichidan avval bir haftalik intensiv mashg‘ulotlar muntazam o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilar fan bo‘yicha chuqur bilim olish barobarida o‘zaro yaqindan tanishib, do‘stona muhitda raqobatlashishni o‘rganadi. Yakunda yozma sinov o‘tkazilganda, ishtirokchilar natijani xotirjam qabul qiladi. Chunki o‘quvchi kamroq ball olsa ham, bu uning bilimi past ekanini emas, balki yonida undan kuchliroq raqib borligidan dalolatligini tushunadi. Natijada bolalarda “Men yuta olmadim” degan tushkun kayfiyat emas, balki o‘z ustida ko‘proq ishlash va rivojlanish istagi shakllanadi. Raqibini bir hafta kuzatib, uning yuksak natijasini tan oladi. Olimpiada yakunida esa bilimini yanada takomillashtirish haqida o‘ylaydi.

O‘quvchi chegaralangan vaqtni to‘g‘ri rejalashtira olishi kerak. Chunki oddatda qiyin masala birinchi beriladi. Bola yecha olmasa, stressga tushadi. Butun olimpiada uchun ajratilgan vaqtning yarmini birinchi masalaga sarflab qo‘yadi. Unda olitla masala bo‘lsa, endi qolgan vaqt beshta masalani yechishga sarflanadi. Avtomatik shoshish xato qilishga olib keladi.

Muvaffaqiyatga erishishda tajriba muhim. Tajriba uchun esa vaqt kerak. Vaqt qisqa bo‘ladi. Hamma gap fidoyi ustozda qoladi. Statistika tahlil qilsak, qaysi fandan terma jamoa rahbari va ustozlari fidoyi bo‘lsa, o‘sha fandan yaxshi natijaga erishilgan.

O‘quvchilarga ko‘proq tajriba maydoni yaratib berish kerak. Oddiy, arzimagan xato butun mehnatni yo‘qqa chiqarishi mumkin. Bu esa tajriba va psixologik tayyorgarlik darajasiga bog‘liq.

Hozir markazimiz o‘quvchilarning olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rishida asqatadigan metodika qo‘llanmalar, olimpiada materiallari va musobaqa masalalariga oid videoyechimlar tayyorlanmoqda.

Bundan tashqari, pedagoglar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida respublika bo‘ylab o‘qituvchilar olimpiadasiga start berildi. Fizika, kimyo, biologiya, matematika, informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan dars beruvchi muallimlar bellashdi. Bu ularga haqiqiy olimpiadani his etish, tashkilotchilik va baholash jarayoni bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Mamlakatimizda umummilliy maqsadga aylangan ta‘limni rivojlantirish borasidagi sa‘y-harakatlar natija bera boshladi. Bugun turli mintaqaviy va xalqaro olimpiadalarda yuqori o‘rinlarni egallab, yurtimiz sha‘nini ko‘tarayotgan iqtidorli o‘g‘il-qizlar ertaga el koriga yaraydigan insonlar bo‘lib kamolga yetadi. Fan olimpiadalari markazi esa ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun bor imkoniyatni ishga solmoqda. Zero, buyuk muhaddis olim Imom Buxoriy aytganidek, “Dunyoda ilmdan o‘zga najot yo‘q va bo‘lmagay”.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

TILNI VATAN KABI ASRAMOQ KERAK

Til – millatning yuragi, o'zlikning ovozi, vatanga muhabbat ifodasi. Xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviyati va madaniyatini namoyon etuvchi muqaddas ne'mat.



Xurshidbek RO'ZIYEV,
O'zbekiston Respublikasi
ichki ishlar vaziri
maslahatchisi, podpolkovnik

Yurtimizda ona tilimizga e'tibor yil sayin ortib bormoqda. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqieini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ushbu yo'nalishdagi amaliy harakatlar rivoji uchun katta yo'l ochdi. 21-oktabr mamlakatimizda O'zbek tili bayrami kuni sifatida belgilandi.

Bundan 36 yil muqaddam "Davlat tili haqida"gi qonun e'lon qilingan va o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Millatning birligi, o'z so'ziga egaligini anglatuvchi mazkur qonunning qabul qilinishi yurtimiz hali mustaqillikka erishmagan pallada, aytish mumkinki, o'sha davr ziyolilarining ma'naviy jasorati, millatimizni mustaqillik sari boshlab borgan ilk qadamlaridan biri bo'lgan.

Xatoni to'g'rilash uchun, deylik, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma, maktabni bitirganlik to'g'risidagi shahodatnoma, pasport, diplom hammasini o'zgartirish vaqt va xarajat, ancha-muncha hujjatbozlikni talab qilishi tabiiy. Biroq yozilganda "Alim Taxtayev" bo'lsa ham loaqol og'zaki nutqda "Olimjon To'xtayev" deyilsa, boshqa odamga aylanib qolmaydi-ku! Qalovini topsang qor ham yonadi, deyshadi. Hammasi inson istagiga bog'liq, aslida.

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist Sherzodxon Qudratxo'ja o'z ism-sharifidagi "yev" qo'shimchasidan voz kechgani ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy muhokamalarga sabab bo'lgan edi.

Ichki ishlar vazirligi faxriylari kengashi raisi, iste'fodagi general-mayor Erkin Norgitovning tizimda minglab shogirdlari bor. Generalning ismi tug'ilgan paytda xatolik bilan hujjatga Irkin tarzida yozilgan ekan. General shuni o'zgartirishga jur'at qilib, barcha hujjatlarini yangiladi va otalari qo'ygan ism Erkinga aylandi. Bir suhbatda u: "Ana endi ko'nglim xotirjam, qayta tug'ilgandek bo'ldim!" degandi hayajonlanib. Faxriy generalning shaxsiy ibrati ko'pchilik uchun saboq bo'lishi kerak, nazarimda.

Yuqoridagi holatlar ham milliy tilimizga munosabat va uni qanday tushunishimizni ko'rsatadi. Achinarlisi, hozirgi vaqtda kelajakni faqat xorijiy til bilish bilan tasavvur etadigan, bog'cha yoshidagi farzandi rus yoki ingliz tilida so'zlasa, shuni muvaffaqiyat deb biladigan oilalar bor. Axir inson bolasi, avvalo, o'z tilini



uchratish odatiy holga aylanib qolgan. Qizig'i shundaki, yurtimizga kelib faoliyat yuritayotgan tadbirkor, ta'lim sohasi vakili yoki boshqa kasb egalaringning aksariyati o'zbek tilini o'rganish kurslariga qatnamoqda. Ayrimlarning yurtimiz va odamlarimiz haqidagi iliq taassurotlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'p kuzataman. Xorijlik mehmonlarning hayrat va havasi, millatimiz tarixi va madaniyatiga hurmati juda baland. Shunday keзда o'z tilidan orlangan millatdoshlarimizni kim deb atashga hayronsiz kishi.

Marhum adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobida quyidagicha yozgandi: "Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida yig'laydi... o'lim oldida onasini ona tilida yo'qlaydi...". So'nggi yillarda "smart", "chellenj", "startap", "feyk", "press-tur" kabi boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar muloqotimizda ko'p ishlatilmoqda. Taraqqiyot bor, ilm-fan rivojlanar ekan, tilimizga yot so'zlar kirib kelishi tabiiy jarayon.

Lekin o'zbek tilida aksariyat yot so'zlarning mazmun-mohiyatini anglatuvchi muqobillar mavjud. Biroq uni ko'pchiligimiz bilmaymiz yoki muloqotda kam foydalanamiz. Shu bois, o'sha yangi so'zlarni qo'llashda o'z tilimizda mavjud bo'lgan ayni shu ma'noni anglatuvchi so'zlardan ko'proq foydalanish, ularni targ'ib etishni, aholi, ayniqsa, yoshlarga tushuntirish zarur.

Yaqinda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atomalar komissiyasi tomonidan o'zbek tili

topishi va tilimiz shunga ko'nikishiga bog'liq, albatta.

"Yangi O'zbekiston" gazetasida doimiy tarzda O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidovning "So'z latofati" kitobidagi fikrlari e'lon qilindi. Hozir Alibek Rustamovning "So'z xususida so'z" kitobidagi durdonalar berilyapti.

Shu o'rinda internet sahifalarida, xususan, telegramda mavjud bo'lgan "To'g'ri yozamiz — mutaxassis blogi", "xatoliklar — lotin" kabi kanallar ham yoshlar, ayniqsa, o'zbek tilini o'rganayotganlar va to'g'ri yozish qoidalarini o'rganuvchilar uchun qulay manba bo'lmoqda. O'zbek tili targ'ibotiga xizmat qiluvchi bunday tez va qulay, hamma foydalanishi oson bo'lgan vositalarni ko'paytirish zarur.

Bugungi kunda ichki ishlar organlarida ham o'zbek tilida ish yuritishni tashkil qilish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash, shuningdek, xodimlarning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlarida ushbu masalalarga birinchi rahbarlar shaxsan mas'ul ekanini belgilangan.

Hozirgi vaqtda ichki ishlar organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga qator davlat xizmatlari ko'rsatilib, fuqarolarga tegishli ma'lumotnoma, ruxsatnoma, guvohnoma va qayd varaqalari beriladi. Ushbu jarayonlar ham to'liq davlat tili qoidalarida asosida olib borilmoqda.

Xodimlarning Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo'linmalarining "O'zbek adabiy tili me'yorlari va davlat tilida ish yuritish" bo'yicha o'quv kurslarida reja asosida doimiy tarzda o'qitib borish ham ijobiy samara bermoqda. Vazirlikning ushbu markaz bilan amaliy hamkorligi natijasida 2023-yildan buyon har yili o'rtacha 300 xodim o'quv kurslarida ishtirok etib, tegishli sertifikatni qo'lga kiritmoqda.

Albatta, bu kabi amaliy harakatlar har bir xodimning mas'uliyatini yanada oshirib, davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish va qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlaydi.

Har bir xodim o'z faoliyatida, ayniqsa, fuqarolar bilan bevosita muloqot jarayonida tilni to'g'ri qo'llashi, xushmuomalalik bilan fikrni aniq yetkazishi kerak. Turli vaziyatlarni boshqalarga to'g'ri tushuntirib yetkaza olish, muammoli holatlarni bartaraf etish, zarur keзда adolati qaror qabul qilish, eng asosiysi, odamlarning ichki ishlar tizimidan rozi bo'lishiga erishishda ham ushbu mahorat va muomala madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar xodimning muomalasi samimiy, tili sof, nutqi ravon va aniq bo'lsa, muloqot qilgan har bir inson va atrofdegilarda ijobiy taassurot uyg'otishi tabiiy.

Eng asosiysi, bugungi shiddatli zamonda ham bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlashi, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylashi va rivojlantirishi muhim ekanini unutmaslik zarur.

Qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan, ajdodlarimizning qoni, jasorati, sabru matonati ila barhayot yashayotgan tilimizni asrash, uni vatan kabi himoya qilish bugungi avlodning muqaddas burchidir.



"Ijodkor shaharlar tarmog'i"ga kiritildi. 2023-yil sentyabr oyida UNESCO bosh qarorgohida buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi keng nishonlandi. Bu ham ikki tomonlama munosabatlar tobora rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Mamlakatimiz Madaniy boyliklarni saqlash va restavratsiya qilish xalqaro markaziga a'zo bo'ldi. Buxoro "Kreativ shaharlar tarmog'i"ga qo'shildi. Samarqanddagi "Ipak yo'li" universitetida UNESCO kafedrasini ochildi. O'tgan yili ta'lim, madaniyat, raqamli va innovatsion texnologiyalar sohaslarida 7 ta yangi loyihani amalga oshirish boshlandi. Qolaversa, Turon cho'llari va Zarafshon-Qoraqum yo'li, ipakchilik, kulollik, rubob chalish va iftorlik an'analari, "Buxoro amiri devonxonasi arxivi", "Turkiston albomi", "Xudoybergan Devonov fotoalbomi" UNESCOning maxsus ro'yxatiga kiritildi.

Shu o'rinda Samarqand shahrida UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasidan nimalar kutilmoqda, uning ahamiyati qanday degan savollar tug'iladi.

Birinchidan, UNESCO sessiyasi o'tkazilgan hudud xalqaro maydonda keng targ'ib etiladi. Ya'ni mediamahsulotlar, audiovizual asarlar yaratiladi. Jarayon mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida efriga berib boriladi. O'sha hududdan tayyorlangan mediamahsulotlar ijtimoiy tarmoqlarda maxsus xeshteg va chorlov kabi usullar orqali keng tarqaladi. Demak, bu tadbir yurtimizning "yumshoq kuchi"ni,

yaratiladi. Shuningdek, esdalik, kumush va oltin tangalar muomalaga chiqariladi. Shu orqali boy tarixiy merosimiz yanada keng targ'ib qilinib, mamlakatimizga sayyohlar oqimi ko'payadi.

Uchinchidan, mazkur sessiya va uning doirasidagi tadbirlarda 130 ta mehmonxonadan ortiq ishtirokchi kelishi kutilmoqda. Birgina UNESCO kotibiyatidan 400 xodim kelishi reja qilingan. Shuningdek, davlat rahbarlari, xalqaro tashkilotlar yetakchilari, vazirlar va elchilar Samarqandda jam bo'ladi.

Mehmonlar uchun "Silk Road Samarkand" majmuasidagi 8 mehmonxonada 1176 ta, Samarqand shahridagi 130 ta mehmonxonada 4178 ta xona ajratilib, forum kunlari uchun band qilib qo'yilgan. Qolaversa, xorijlik mehmonlar uchun yurtimizning boy madaniy merosi bilan yaqindan tanishtirish uchun Toshkent, Buxoro, Xiva va Shahrisabzda madaniy tadbirlar, ekskursiyalar va qabullar o'tkaziladi. Shuning o'ziyoq mazkur sessiyaning milliy manfaatimiz uchun muhim ekanini anglatadi.

Mintaqamizda birinchi marta o'tadigan global miqyosdagi ushbu tadbir xalqaro hamjamiyatga O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining ulkan salohiyatini yana bir bor namoyish etadi.

Usmonjon BO'TAYEV,
siyosiy fanlar doktori,
professor

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
34830 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV